Bir yillik novdalarning barg qo'ltiqlarida meva ko'rta klarining shakllanishi may oyiga to'g'ri keladi. Tok novlarini joylashtirishda zonadagii yillik xarorat yig'indisiga katta ahamiyat berish lozim. Juda ertapishar tok navlari uchun 2100-2500, ertapishar navlar uchun 2500-2900, o'rtapishar navlar uchun 2900-3300, kechpishar navlar uchun 3300-3700 daraja yillik foydali xarorat yig'indisi talab qilinadi. YUqorida keltirilgan malumotlardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizning janubiy va sharqiy tumanlari erta, o'rta va kechpishar uzum navlarini etishtirish uchun nihoyatda qulay sharoitga ega.

2.3 Ko'chat etishtirish usullari va tokzorlarni barpo qilish.

Qalamcha tayyorlash va uni saqlash. Tok ko'chatlari asosan qalamchadan ko'paytiriladi. Tok qalamchadan oson ko'payadi. Bunda o'zining biologik xususiyatlarini to'liq saqlab qoladi. Tok ko'chatlari urug'idan ham ko'paytiriladi, lekin urug'idan ko'paytirish usuli faqat yangi tok navlarini etishtirishda qo'llaniladi. SHuningdek, tok parxish qilish yo'li bilan ham ko'paytiriladi. Bu usuldan uzumzordagi xatoni to'ldirishda foydalaniladi. Tokning 2-3 yillik novdalarini eksa ham ko'karaveradi, lekin bir yillik novdalarga nisbatan ularning ko'karish foizi kam. Tokning qarizanglari ham yaxshi ko'karmaydi. Tokning birmuncha etilgan ko'k novdalari issiqxonalarga ekilsa, ular ildiz chiqara boshlaydi. Baza bir yillik qalamchalarni tayyorlashda qari zangi ham qirqib olib ekiladi. Bunday qalamcha bog'bonlar tilida "tovoni bor qalamcha" deb ataladi va tez rivojlanadi, lekin keyinchalik tokning shakli buziladi, hosili kamayib ketadi.

Qalamchalar asosan aprobatsiya qilingan, serhosil, kasallanmagan, muayyan zona uchun tavsiya qilingan navli uzumzorlardan tayyorlanadi. Ko'chatlar qanchalik serhosil tupdan olingan, tuproq va iqlim sharoitiga moslashgan bo'lsa, kelajakda uzumzordan muntazam ravishda mo'l hosil etishtiriladi. Qalamchalar tayyorlashda navlarni aralashtirib yuormaslik kerak. Bu ishda pala-partishlikka yo'l qo'yilsa yoki navlar aralashtirib yuborilsa, keyinchalik ish jarayoni murakkablashadi, hosildorlik kamayadi.

Sug'oriladigan uzumzorlar kuzda sentabr oyida kesishga boshlanib, noyabr oyigacha davom etadi.

Tok qishga ko'milmaydigan tumanlarda qalamchalarni fevral-mart oylarida tok tanasida shira suvi xarakati boshlamaguncha tayyorlanadi.

Qalamcha olish uchun maxsus barpo qilingan uzumzorlar kamchil bo'lsa, xo'jalikdagi serxosil, kasallanmagan uzumzorlardan ham qalamcha qilish mumkin. Bunda uzum pisha boshlaganda aprobatsiya o'tkazilib, qalamcha tayyorlanmaydigan tok tuplariga belgi, taxtachalar osib chiqiladi. Tok kesishda birinchi navbatda mana shu toklar qirqilib, qirqimlar uzumzordan chiqarib tashlanadi. Keyin boshqa tuplardagi qalamcha tayyorlashga kirishiladi. Uzumzorda

bir necha uzum navi aralash ekilgan bo'lsa, aprobatsiya vaqtida har bir navga alohida belgi malum bir ranga bo'yalgan taxtachalar osib chiqiladi.

Qalamchalar yaxshi chiniqib pishgan, kasallanmagan, ezilmagan, malum yo'g'onlikdagi navlardan olinadi. Qalamchalarning uzunligi ikki xil: 55-60 yoki 110-120 sm dan qilib qirqish mumkin. Har bir qalamchada 5 tadan bo'yin bo'lishi shart. Uzun novdalar ekish oldidan ikkita bo'linib, kilchevka qilinadi.

Ayrim nodir tok tuplarida novdalar kam bo'lsa, qalamchalarni 30-40 sm uzunlikda tayyorlasa ham bo'ladi. O'rta Osiyoda kuchli o'sadigan tok novdalaridan olinadigan qalamchalarning yo'g'onligi 8-12 mm, kuchsiz o'suvchi tok navlariniki 6-10 mm bo'lishi kerak. Pishib etilgan va yo'g'on novdalarda organik moddalar ko'p, ularning ko'karish foizi birmuncha yuqori bo'ladi.

Qalamchalashda uning yuqori qismi – ikki bo'g'inning o'rtasidan, pastki qismi ko'rta kdan ikki sm pastdan kesilishi kerak. Tayyorlangan qalamchalar 100 donadan qilib, 1-2 eridan yumshoq novda yoki simlar bilan bog'lanadi. Har bir bog'lanmaga tok navining nomi va qalamcha tayyorlangan muddati qora qalamda yoziladi, qalamchalar orasiga qo'yiladi. Qalamchalar uzumzorda oz vaqt saqlanadigan bo'lsa, sug'olriladigan erdjan chuqur qazilib, ular ana shu erga vaqtincha ko'mib qo'yilishi lozim. Qishda ko'milmaydigan zonalarda bahorda qalamchalarni tayyorlashga kirishishdan oldin novdalarni kuz va qishda sovuqdan shikastlangan yoki shikastlanmaganligini yaxshilab tekshiriladi. Sovuq urgan qalamchalardan qalamcha tayyorlanmaydi.

Kuzda tayyorlangan qalamchalar maxsus chuqurlarga ko'miladi. Bu chuqurlar suv to'planmaydigan, sizot suvi chuqur joylashgan botqoqlanmaydigan, sho'r bosmagan, quyosh nuri kun bo'yi qizdirmaydigan, er chuqurligi 60-70 sm, kengligi 1,5-20 metr va uzunligi qalamchalar hajmiga mos qilib qaziladi. Qalamchalar chuqurga tik qilib joylashtiriladi. Bir necha tok navlari qalamchalari birga ko'miladigan bo'lsa, har nav aloxida joylashtiriladi. Qalamchalarning ustiga 30-40 sm qalinlikda tuproq tashlanadi. Bunda qalamchalar orasida bo'sh joy qolmasligi kerak, chuqurlar ustiga tok navi yozilgan qoziqchalar yozib qo'yiladi. YOmg'ir suvlarining chetka oqib ketishi uchun qalamchalar ko'milgan joydan

biroz qochirib kichkina jo'yaklar qaziladi va ular katta ariqqa tutashtirib yuboriladi. CHuqur ustiga yoqqan qor, yomg'ir suvlari ariqqa oqib ketadi. Yiliga bir necha ming tok qalamchalari tayyorlanadigan xo'jaliklarda maxsus erto'lalar bo'lishi va unda havo yaxshi yurib turishi xarorat 0 darajadan sal yuqori bo'lishi kerak.

Qalamchalarni ekishga tayyorlash. Ekishdan oldin qalamchalar kilchevka qilinadi. Kilchevka qilinmay ekilgan qalamchalar juda sust o'sadi va kuzgacha etarli darajada rivojlanib ulgurmaydi. CHunki, qalamchalar to'g'ridan to'g'ri ko'chatzorga ekilganda, ular dastlabki paytlarda o'zidagi mavjud oziq moddalar hisobiga ko'rta k chiqaradi, barg yozadi. Zahira oziq moddalari tugaganidan so'ng yangi o'sib chiqqan novdalar oziq moddalar bilan to'liq taminlanmasligi natijasida o'sishdan qoladi. Qalamchalar ekishdan oldin kilchevka qilinsa, ko'chatzorga ekilganidan keyin erdagi nam va oziq moddalardan uzluksiz foydalana oladi. Kilchevka qilingan qalamchalarning pastki qismida bo'rtma paydo bo'ladi va undan tezda mayda ildizchalar o'sib chiqadi.

Kilchevka mart oyida ko'rta klar bo'rtmasdan qalamchalarni ekishdan 20-25 kun oldino'tkaziladi. Buning uchun qalamchalar qishda saqlangan chuqurdan kovlab olinib, pastki qismi ko'rta kka taqab bir tekisda kesiladi va bir ikki kun suvga solib ko'yiladi. So'ngra ularni suvdan olib, 60-80 sm li chuqurga uchini pastka qaratib zichlab joylanadi. Qalamchalarning ustiga 10-12 sm qalinlikda tuproq va yaxshi chirigan go'ng tashlanib, ular vaqti vaqti bilan namlab turiladi.chuqurlar ustiga oynalangan romlar qo'yilsa, tuproqning yuzasi yaxshiroq qiziydi va qalamchalarning pastki qismida oq bo'rtmalar unadi. SHundan keyin qalamchalarni chuqurda ko'p ushla turib bo'lmaydi. CHunki bo'rtma paydo bo'lgan qismning yuqorisidagi bo'g'inlardan ingichka ildizchalar unib chiqadi. Qalamchalar kilchevka qilingan chuqurchalardan biroz kechiktirib olinsa, mana shu ildizchalar lat eydi, qalamchalar kelgusida ancha sust ko'karadi.

Kilchevka qilingan qalamchalar tezda ko'chat etishtiriladigan maydonga olib borib ekiladi. SHuning uchun kilchevkani ko'chat etishtiriladigan erga yaqin joyda o'tkazgan maqul.

Qalamchalarning yaxshi ko'karishi uchun samarali agrotexnik tadbirlarni qo'llash lozim. Qalamcha yaxshi ildiz otishi uchun ekish oldidan uning uch tomonidagi birinchi ikki ko'rta kdan pastrog'i maxsus arrasimon asbob yordamida tilinadi. Bunda mana shu ikki ko'rta kdan boshqalari olib tashlanadi.

SHuningdek, kilchevka qilishdan oldin har xil o'stiruvchi moddalardan foydalanish mumkin. O'stiruvchi moddalar qalamchalarning ildiz chiqarishini tezlashtiradi. Bunday moddalar jumlasiga, geteroauksin eritmasi (20 gr geteroauksin 100 litr suvda eritiladi), alfa-naftiliuksin kislotali – ANU (5 gr alfa-naftiliuksin kislotali 100 litr suvda eritiladi) kiradi. Bu eritmalar shisha, emal qoplangan yoki oq tunukadan ishlangan idishlarda tayyorlanishi mumkin. Qalamchalarning uchdan bir qismi eritmaga solinib, unda 18-20 soat davomida saqlanadi.

ANU sovuq suvda sekin eriydi, shuning uchun uning 96% li spirtida oldindan eritiladi. Bunda 25 milligramm spirtga 5 gramm ANU eritib solinadi. Uzun erigach, ustiga issiq suv quyiladi. Spirt bo'lmasa, uni issiq suvda eritish mumkin.

O'stiruvchi dorilar bilan dorilangan qalamchalarda 12-15 kun ichida bo'rtmalar va ko'pgina mayda ildizchalar paydo bo'ladi.

Bir million dona qalamchani dorilashga 2-2,5 gramm preparat sarflanadi.

Ko'chatzor uchun er tanlash va uni tayyorlash. Tok qalamchasi ekiladigan er suv bilan taminlanib turadigan, begona o'tlardan toza, unumdor, katta yo'lga yaqinroq bo'lishi kerak. Sizot suvi 1,5-2 metr chuqurlikda joylashgan bo'lsa, qulay hisoblanadi. Er sho'rlangan bo'lsa, uning meliorativ holatini yaxshilab, tuproq unumdorligini tiklash zarur. Ko'chatzorlarni qumli, qumoq va bo'z tuproqli erlarda tashkil etish yaxshi natija beradi.

Almashlab ekishni joriy qilish, mexanizatsiyadan to'liq foydalanish uchun uchastkalarining uzunligi 100-200 metr bo'lishi maqsadga muvofiq. Tuproq unumdorligini oshirish uchun ikki-uch yilda beda o'stirilib, uchinchi yili bir-ikki o'rimdan keyin bedapoya haydab yuboriladi va qalamchalar ekishga tayyorlanadi.

CHopiq qilinadigan ekinlardan bo'shagan har gektar erga 20-40

tonnagacha organik o'g'it solish lozim. Qalamchalar bahorda ekiladigan bo'lsa, er yaxshilab tekislanib, yuqorida aytilgan miqdorda go'ng solinib, plantaj plugda 50-60 sm santimetr chuqurlikda haydaladi. Ko'klamda er chizellanadi yoki boronalanadi.

Er bedapoyadan bo'shagan bo'lsa (malumki, beda tuproqdan fosforni ko'p oladi), erni haydashdan oldin gektariga 800-1000 kilogramm superfosfat solinadi. SHu tartibda tayyorlangan erda ekilgan tok qalamchasi yaxshi tutadi va serildiz bo'ladi.

Qalamchalarni ekish. Tok qalamchalari respublikaning ko'pgina viloyatlarida mart-aprel oylarida ekiladi. Tog'li va er qatlamlari muzlamaydigan va qishda qor qalin tushadigan zonalarda oktabr-noyabr oylarida eksa ham bo'ladi. Bahorda 25-30 santimetrlik tuproq qatlamidagi harorat 10 darajaga etganda ekilgan qalamchalar yaxshi etiladi.

Tokzor uchun joy tanlash. Tok 60-80 yil va undan ham ko'proq yashaydi va hosilga kirgandan boshlab har yili xosil beradi. Tokzor uzoq yillar mo'l xosil berishi uchun dastavval uzumzor barpo qilinadigan maydon unumdor bo'lishi kerak. Tok qumloq, toshloq, bo'z va shunga o'xshash tuproqli zonalarda yaxshi o'sadi va mo'l xosil beradi.

Uzumchilik ham serdaromad, ham sermehnat tarmoq. Uzumchilikning samaradorligini oshirish uchun unda hozirgi zamon texnika taraqqiyoti yutuqlaridan to'liq foydalanish kerak.

Sizot suvlar ham tokning o'sishiga har xil tasir qiladi. Uzumzor barpo qilinadigan erlarda sizot suvlar bir-ikki metr chuqurda joylashgan bo'lsa ham yaxshi hisoblanadi.

Er osti suvlari yaqin erlarga vinobop navlarni ekish lozim. Uzumzor uchun erni, albatta, mirishkor mutaxassislar yordamida tanlash kerak.

Uzumzor barpo qilinadigan erlarni bo'lib chiqish. Uzumzor barpo qilinadigan plan asosida kvartallarga, kvartallar karta va kataklarga bo'lib chiqiladi. Tekis erlarda har bir kvartal uch besh kartadan iborat bo'lishi va kvartal chetida 6-8 metr mashinalar xarakati uchun yo'l qoldirilishi kerak.

Kartaning simbag'az yo'nalishi bo'yicha kengligi 100 metrdan oshmasligi kerak. Uning uzunligi esa 200-500 metr bo'lishi mumkin. Kartalar o'rtasida to'rt-besh metr kenglikda yo'l qoldiriladi.

Ixota daraxtzorlar barpo qilish. Uzunlardan yuqori xosil olishda uning atrofini ixotalashtirish katta ahamiyatga ega. Ixota daraxtlar uzunzorlarni yozda garmseldan, qishda esa sovuq shamollardan saqlaydi. Garmsel er yuzasidan namni ko'plab bug'lantiradi va tok er ustki qismining normal o'sib rivojlanishiga salbiy tasir ko'rsatadi. Qishda bo'ladigan sovuq shamollar er qatlamini chuqur muzlatib, engil tuproqlarda o'stirilgan tok ildiz sistemasining sovuq urishiga sabab bo'ladi.

Ixota daraxtzorlar uzunzorlardan 15-20 metr qochirib barpo qilinadi. SHuningdek, katta maydondagi uzunzorning yonidan o'tkazilgan ariqlar bo'yiga ham daraxtlar ekiladi. Bunda tup oralari 1-1,5 metr, qator oralari 2-3 metrdan 5-6 qator qilib ekiladi. Ixota daraxtlarini uzunzor barpo qilishdan 1-2 yil oldin, xech bo'lmasa uzunzor bilan bir vaqtda barpo qilish tavsiya etiladi.

Ixota barpo qilishda eman, zarang, terak, tut, mevali daraxtlardan yong'oq, o'rik va olcha ko'chatlarini ekish mumkin.

Erni tok ko'chatlari ekishga tayyorlash. Katta maydonlarni tekislashda buldozer, skreper, greyder va traktor volokushkalaridan foydalaniladi. Sizot suvlar yuza joylashgan uchastkalarining chetidan 3-4 metr chuqurlikda zovur qaziladi. Er tekislangach, gektariga 30-40 tonna go'ng, 800-1000 kg superfosfat solinib, 60-70 sm chuqurlikda xaydaladi. Mana shu shudgor bo'lg'uvsu hosilga katta tasir ko'rsatadi. Bunday chuqurlikda ag'darib haydalgan erlarda uch yilgacha begona o'tlar ancha kam bo'ladi.

SHo'rxok erlarni ko'chat ekishga tayyorlash. Tok o'simligi boshqa mevalarga nisbatan tuproq sho'riga anchagina chidamli. Ammo tok o'tqaziladigan erning umumiy tuzliligi 0,1-0,2 foiz yoki eng zararli hisoblangan xlorion tuzi 0,02-0,03 foizdan ko'p bo'lmasligi kerak. Er sho'ri oktabr-noyabr oylarida yuvilsa, erning 2-3 metrgacha qatlamidagi zararli tuzlar yuvilib ketadi. Umuman 1 kub metr suv tuproqning strukturasi va zichligiga qarab, 2-9 kilogramm tuzni 1,5-2 metrgacha chuqurlikkacha tushiradi. CHo'l bo'ztuproq zonalarida keng tarqalgan

soztuproq maydonlarda 1 kub metr suv bilan o'rta hisobda 3 kilogrammgacha tuzni cho'ktirishi mumkin.

Er sho'rini yuvishda dastlab uchastkalar yaxshilab tekislanadi. Keyin er sho'rlanish darajasiga qarab, 0,1-0,25 gektarlik pollarga bo'linadi. Pollarning atrofida 40-50 sm li marzalar olinib, suv quyiladi. Suv poldan-polga oqib o'tmasdan, erning pastki qismlariga shimilib, uchastka atrofida qazilgan zovurlarga sizib chiqib ketishi kerak. Agar suv poldan polga oqib chiqsa, bunda, asosan, birinchi pol yaxshi yuvilib, keyingilari uncha yaxshi yuvilmaydi.

Oktabr-noyabr oylari va qish faslida sizot suvlari eng pastga tushgan bo'ladi. SHO'r yuvish bu muddatlardan kech o'tkazilsa, deyarli yaxshi natija bermaydi. Bahor oylarida sizot suvlari eng yuqori ko'tarilgan bo'ladi. SHu sababli bu davrda tuproqdagi sho'r yaxshi yuvilmaydi. Undan tashqari, bu davrda yuvilgan er o'z vaqtida etilmaydi. Natijada er xaydash va ko'chat ekish kechikadi. Erning sho'ri yozda yuvilganda, tuproqda sho'r kamayadi, lekin tezda yana tiklanadi. Buning sababi shuki, sho'r yuvish uchun qo'yilgan suvning bir qismi tuzni eritib, o'zi bilan zovurlarga olib ketadi, bir qismi er osti suvlariga qo'shiladi. Mana shu suv issiq havo tasirida bug'lanib, tuz yana erning haydalma qatlamiga uradi. Agar er juda sovuq kunlarda yuvilsa, suv muzlab, tuproqdagi tuz yaxshi erimaydi.

Ilgaridan foydalanib kelinayotgan erlarda er sho'rlanishining oldini olish uchun bir yoki ikki marta yuvish kifoya qiladi. Er sho'rini yuvishda shu maydonga sholi ekish katta samara beradi. SHolipoyalarga yozda suv ko'p va tez-tez qo'yiladi. Bu suvlar erdagi o'simlik uchun zararli tuzlarni eritib, erning pastki qavatlariga tushiradi. Lekin shuni aytish kerakki, sizot suvi yaqin bo'lgan erlarda zovurlar qazish shart. Aksincha, sizot suvlarini pasaytirish qiyin bo'ladi.

Sizot suvi yuza joylashgan erlarga sholi ekilsa, sizot suvi yanada yuqori ko'tariladi. Bunday erlarda sho'r yuvishdan oldin er chuqur haydalishi lozim. Haydalgan qatlamlarga nam tezlikda o'tib, tuproq qavatlaridagi zararli tuzlarni eritadi va pastka qavatlariga tushiradi. Tuzlarning bir qismi suv bilan birga sizib chiqib ketadi. Erning pastki qavatlarida to'plangan tuzlar erning ustki qavatlariga urmasligi uchun choralar ko'rish lozim. Buning uchun zovurlarni 1-2 yilda bir

marta o'z vaqtida yaxshilab tozalab turish kerak.

Ko'chat o'tkazish. Sug'oriladigan xududlarida barpo qilinadigan yangi uzumzorlarda tok qator oralari $3 \times 2,5$ metr, voish usulida o'stiriladigan kuchli o'suvchi navlarning qator oralari 3,5 metr bo'ladi. Tup oralari kuchli o'suvchi navlar uchun 3,25 metr, o'rtacha o'suvchi navlar uchun 2,5 metr, kuchsiz o'suvchi navlar uchun $2 \times 1,5$ metr bo'lishi kerak. Sizot suvlari yuza joylashgan uzumzorlarda tok tupi oralari kuchli, o'rtacha va kuchsiz o'suvchi navlar uchun tegishli ravishda 3, 2,5 va 2 metrdan bo'lishi kerak.

Ko'chatlar bahorda kunlar isiy boshlanganda 10-20 aprelgacha ekiladi. SHungacha xo'jalik uchun zarur bo'lgan tok navi ko'chatlari bo'lgusi uzumzor maydoniga keltirib qo'yiladi. Ko'chatni o'tkazish uchun tayyorlashda, uning uch qismidan chiqqan ildizlari qirqib tashlanadi, past tomondagi ildizlari esa ozroq qisqartiriladi. Ko'chatda yaxshi rivojlangan va to'g'ri joylashgan ikkita uchta novdada uchtdan ko'rta k qoldirib, ortiqchasi kesib tashlanadi. Ko'chat ildizlari qurib qolmasligi uchun ekishdan oldin go'ng va loy aralashmasidan tayyorlangan suyuqlikka botirib olinadi.

III- BOB. Uzunzorlarni parvarishlash va oziqlantirish.

3.1. Tokni o'stirish usullari.

Uzunzor qator orlariga birinchi yili poliz ekinlari yoki chopiq qilinadigan ekinlar (sabzavot va ertagi kartoshka) ekish ham mumkin. Ekin qatorlari tok tuplaridan 0,5 metr uzoqlikda bo'lishi kerak. O'sish davrida uzunzor qator oralaritraktor kultivatori bilan 4-6 marta, qo'l bilan 2-3 marta yumshatiladi. Qatqaloq paydo bo'lishiga, begona o'tlarning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik zarur. Tok ko'chatlari o'tkazilgan dastlabki yilda uning ildiz sistemasi uncha yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. SHu sababli uzunzorni tez-tez sug'orib turish zarur. Birinchi yili yosh uzunzorga, tuproq sharoitiga qarab, 6-10 martagacha suv beriladi, aprel, may, iyun, iyul va avgust oylarida ikki martadan sug'oriladi.

Ko'chat o'tkazishdan oldin o'g'it berilmagan bo'lsa, ikkinchi yili tokni ochish bilan bir vaqtda o'g'it solinadi. Ikkinchi yili ham birinchi yilgi parvarish davom ettiriladi: tok qator oralari 4-6 marta kultivatsiya qilinadi, qatorlar esa 3-4 marta yumshatiladi, 6-8 marta sug'oriladi. Nobud bo'lgan tuplar o'rniga shu navning o'zidan yangi ko'chatlar o'tqaziladi.

Tok O'zbekiston sharoitida **simbag'az (so'ritok), so'ri xolda va erbag'irlatib** o'stiriladi.

Ko'proq tok o'stirishning simbag'az usuli qo'llaniladi. Simbag'azda o'stirilgan toklarni qishga ko'mish, bahorda ochish, tok qator oralarini mexanizatsiyada ishlash ancha oson.

Tog'li tumanlarda va ayrim tomorqalarda tok aymoqi xolda daraxtlarga chiqarib o'stiriladi. Tok o'zining jingalaklari bilan shox va novdalarga chirmashib o'sadi. Bu usl uncha qulay emas. CHunki qishki qattiq sovuqda ochiq qoldirilgan toklar kabi daraxtlarga chirmashtirib o'stirilgan toklarning er ustki qismini sovuq urib ketadi

Tok erbag'irlatib o'stirilganda, tok zang va novdalari tagiga 50-70 santimetr uzunlikda bir necha tirgovuchlar qo'yiladi. SHunday qilinganda tok novdalari va uzum boshlariga quyosh nuri, shamol tegadi va tok oziq moddalardan yaxshi foydalanadi. Natijada uzum boshlarida qand moddasi yaxshi to'planadi,

uzum boshlari rangdor bo'lib, tok novdalari chiniqib pishadi. Ammo, erbag'irlatib o'stirilgan toklar qator oralarini mexanizatsiya yordamida ishlash qiyin bo'ladi. Tokzor sug'orilganda, erga tegib turgan uzum boshlari chirydi. SHuningdek, xomtok o'tkazish, gullarning changlanishi, hosilni terib olish ham ancha qiyinlashadi. Erbag'irlatib o'stirilgan tokzor bahorda bo'ladigan qora sovuqlardan qattiq shikastlanadi.

Tokni tirgovuchlarga olmay o'stirish ko'proq tok qishga ko'milmay o'stiriladigan janubiy zonalarida qo'llaniladi. Bunda zanglar baquvvat o'stiriladi. Zanglarda bir necha madang novda qoldirilib, ulardagi ko'pchilik uzum boshlari erga tegmay osilib turadi. Bu usulning kamchiligi shundaki, tok qator orasiga mexanizatsiya yordamida ishlov berishning imkoni yo'q. SHuningdek, hosilga kirgan novdalar va ko'rta klar ayrim yillari qishda bo'ladigan qattiq sovuqdan shikastlanadi. SHu boisdan bu usul xozir kam qo'llaniladi.

Tokni ishkonda o'stirish. Bu usul eski tokzorlarda uchraydi. Bunda tok tuplarining qator orasi 3,5-5,5 metr, qatordagi tuplar oralig'i 2-4 metrdan bo'ladi. Tokzor hosilga kirganda, tok tupidan 0,5 metr qochirib tol novdalari ikki qator qilib qadaladi. Ketma-ket qadalgan novdalarning uchi egilib, bir-biriga bog'lab, ishkoma hosil qilinadi. Novdalar qatorida 40-56 santimetr oraliqda 5-6 qator qilib bag'azlar bog'lanadi. Ishkoma erdan 2,5-3 metr balandlikda bo'ladi. Qatordagi toklarning yarmi bir tomonga, ikkinchi yarmi esa qarshi tomonga ko'tariladi.

Keyingi paytlarda tol novdasi o'rniga uch burchakli temir va ingichka temir armaturalar qo'llanilyapti. CHunki poyalarni 2-3 yildan almashtirib turish lozim. Temir armatura esa ko'p yillar chidaydi.

Ishkonda o'stirilgan toklarning qator orasiga, ayniqsa, kun atrofiga ishlov berish ancha qiyin. Ko'pchilik ishlarni qo'lda bajarishga to'g'ri keladi. SHu sababli bu usul keng tarqalmagan.

Tokni so'rida "voish" usulida o'stirish. Toklarni erdan ko'tarish uchun tik ustunlar qo'yiladi. Ustunlarning erdan 3-3,5 metr yuqoriga 3-4 metr uzunlikdagi ingichkaroq hoda va yoki taxtachalar o'rnatilib, ularning ikkinchi uchi imorat devorlariga tiraladi, ochiq erlarda ularning tagiga tirgovuchlar qo'yiladi. Tik

qo'yilgan ustunlarga bag'azlar bog'lanadi. So'rining ustida ham bag'azlar 40-50 santimetr oraliqda o'tkazilishi kerak.

Rizamat ota Musamuhamedov, voishni quyidagicha o'zgartirib ko'rishni taklif etadi: bunda tok qo'shqatorlab ekilib, qatorlar orasi 2 metrdan, bir qo'sh qator bilan ikkinchi qo'shqator orasi 4-5 metrdan qoldiriladi. Qatordagi tuplar orasi 2,5-3 metrdan bo'lib, har tupda uchtadan madang o'stiriladi. Tok novdalarini ko'tarish uchun tok tupidan 20-30 santimetr qochirib, bir-biridan 8 metr uzoqlikda ustunlar o'rnatiladi. Har qatordagi juft ustunlarning uchi bag'az xodalar bilan birlashtiriladi. Ustunlar qatori va ustunlarni birlashtiradigan xodalarga bir necha qator qilib sim tortiladi. Mana shu simlar ustiga tok novdalari yotqizib bog'lanadi.

Har tupdagi uchta madangdan chiqqan novdalarning bir qismi o'ng tomondagi, ikkinchi qismi chap tomondagi simbag'azlarga ko'tariladi. Natijada eni 4 metr keladigan so'ri hosil bo'ladi.

Tokni simbag'azda o'stirish. CHetki ustunlar tashqari tomonga 10-15 santimetr qiyaroq qilib, oraliq ustunlar esa tik holda o'rnatiladi. SHunda 4-5 qator sim tortilganda ham langar ustunlar egilib ketmaydi, simlar tarang tortilib turadi.

Simbag'azlarga 2-3 mm yo'g'onlikda simlar tortiladi. Pastki qatorga tortiladigan simlarning yo'g'onligi 2,5-3 mm, ustki qatorlar uchun esa 2 mm bo'lgani maqul.

Qo'sh simbag'az usulining 2 xili ko'p tarqalgan. Birinchisi xo'raki va kuchli o'suvchi tok tuplarini o'stirishda qo'llaniladi. Bunda tupning ikki tomoniga yarim metrdan qochirib, yo'g'onligi 8-12 santimetr keladigan 3,5-4 metrlik temir-beton yoki truba ustun o'rnatiladi. Ustunlarga har 40-60 santimetr oraliqda 110-120 santimetr uzunlikdagi bag'azlar tortiladi. CHetki ustunlar qatorining ichki tomoniga ularga parallel qilib 8-10 metr oraliqda qo'sh ustunlar o'rnatib chiqiladi. 40-60 santimetrli bag'azlarga sim bog'lanib oraliq ustunlarga barobar balandlikda tarang qilib tortiladi.

Tok ishkom usulida o'stirilganda ikki tomonga qiyshaytirib o'rnatilgan novdalarga tok zang va novdalari yotqizib bog'lansa, bir metrlik parallel qo'sh simbag'az hosil bo'ladi. Ammo bu usul unchalik samarali emas. CHunki bunda tok

tuplariga ishlov berish qiyinlashadi, undan tashqari, ko'p material sarflanadi.

Toklarni o'z vaqtida sifatli ochish, zang va madang novdalarni simbag'azga to'g'ri bog'lash yuqori hg'osil etishtirishda katta ahamiyatga ega. CHunki hosil toklar erta ochilsa, novdalarni sovuq urib ketishi xavfi tug'iladi, kechikilsa, ochish paytidanovdalaridagi rivojlangan ko'rta klarning ko'pchiligi sinishi yoki ezilib, qattiq shikastlanishi mumkin. Natijada hosil kamayib ketadi.

Janubiy zonalarda tok mart oyida, shimoliy zonalarda esa kechroq – aprelning birinchi yarmida ochiladi. Undan tashqari er yuzi qiziganda erda yotgan novdalaridagi tez yoziladi. Natijada ularni kechki qora sovuq urib ketadi.

Birinchi navbatda quyosh nuri yaxshi qizitadigan qiyaliklarga ekilgan, shuningdek, xosilga kirmagan toklar ochiladi. Pastqam erlarda barpo qilingan uzumzorni bir muncha kechroq ochsa xam bo'ladi. Avval tuproq yupqaroq tashlangan toklar, keyin tuprog'i qalin va xashakka o'ralgan toklar ochiladi.

Ochilgan toklarni darxol ishkomb, so'ri va simbag'azlarga ko'tarish lozim. CHunki, pastda bo'ladigan sovuq xavo ko'rta klarga zarar etkazishi mumkin.

O'zbekistonning janubiy xududlarida toklarni may oyining boshidan ochishga kirishiladi. Qoraqalpog'iston respublikasi va xorazm viloyatida toklar aprel oyida tuproqdan ochiladi. Zang va xosil beruvchi novdalar erta bahorda tok tuplari ochilishi bilan sibag'azlarga bog'lanadi. Bu ishlar ko'rta klar bo'rtishiga qadar tugallanishi kerak.

Eski zanglar simbag'azlarni birinchi simiga, xosil beruvchi novdalar esa ikkinchi simga, qalpoqli simbag'azlarga ko'tarilgan tok tuplaridagi xosil beruvchi novdalar simbag'ining uchinchi simiga bog'lanadi. Zanglardagi novdalar bir tekisda rivojlanishi uchun zanglar simbag'alarga gorizonta yoki sal qiya qilib bog'lanishi lozim. Novdalarning simbag'alariga 8 shaklda maxkam bog'lash kerak. CHunki, zanglar yo'g'onlanishi bilan bog'ichlar uzilib ketadi.

Novdalar 50-60 sm uzunlikka etganda birinchi xomtok o'tkaziladi, yosh novdalar ikkinchi, bazan uchinchi simga bog'lanadi. Ko'k novdaning o'sish kuchi va joylashishiga qarab ikkinchi marta uchinui yoki to'rtinchi simga bog'lanadi.

Kuchli o'sgan tok tuplaridagi ko'k novdalar yozning oxirida uchinchi

marta qayta tarab, bog'lab chiqiladi. Ko'k novdalarning simbag'alarga ayrim-ayrim bog'lanishi kerak. Aslo bir nechtasini birga bog'lashga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Novdalarni bog'lash uchun chipta, polietilen plenka, kanop, tol va tut chibig'lari ishlatiladi.

3.2. Tok tupiga shakl berish, kesish va xomtok, chilpish, chekankka qilish.

Tok kesish muxim agrotexnik usul bo'lib, tokning o'sishi va meva qilishini tartibga soladi. Bu usul yordamida tokni parvarishlash uchun qulay shakl berilib, u tokzorlardan foydalanish davomida saqlab turiladi. Toklarga to'g'ri shakl berilishi va oqilona o'stirish tizimi tupdan uzoq vaqt va yuqori xosil olishini taminlaydi, quyosh nuridan, issiqlik, suv va ozuqa moddalaridan to'liqroq foydalanishga, shuningdek, mexanizatsiyani keng qo'llanilishiga imkon beradi.

Tok qishga ko'miladigan mintaqada ko'p engli elpig'ichsimon shakl berish usuli keng qo'llaniladi, bu tok tuplarini ko'mishni osonlashtiradi, mo'l xosil beradigan ko'zchalarni qoldirishga imkon beradi.

Tupni bir tomonga elpig'ichsimon shakllantirishda qatordagi tuplar orasidagi masofa navlarning o'sish kuchiga bog'liq: kuchli o'sadigan navlar uchun 2,5 m, o'rtacha o'sadiganlar uchun 2 m. Bir tomonlama elpig'ichsimon shakl berish uchun tupda faqat kerakli tomonga o'sgan novda va englar qoldiriladi. Tuplarni shakllantirishda va ulardan foydalanishda o'z vaqtida va to'g'ri xomtok qilish muxim ahamiyatga ega.

SHakllantirilgan tuplarni har yili kesishdan asosiy maqsad yaxshi, sifatli yuqori xosil olishni taminlash, tup shaklini saqlash, nav xususiyatlari va qo'llaniladigan agrotexnika va muayyan o'sish sharoitiga ko'zra ko'zchalar miqdorini tartibga solishdan iboratdir.

Tupda etarli miqdorda ko'rta klar bo'lmasa, rivojlanadigan novdalar soni kamayib ketadi, ko'rta klar normadan ortiqcha bo'lsa, hosildorlik pasayadi, uzum boshi va mevasining o'rtacha og'irligi kamayadi, keyingi yili meva olish uchun foydalanish mumkin bo'lgan novdalar uzunligi va soni qisqaradi.

Tokzorlarda tok kesishni erta va o'rtapishar navlardan boshlash zarur,

chunki ularning novdalari tezroq pishadi.

SHuni qayd qilish kerakki, xomtokni (ko'k novdalarni bog'lash, tuplarda novdalar kam yoki ortiqcha bo'lganida erta yozda chekankalash) to'g'ri va o'z vaqtida o'tqazish kesishni osonlashtiradi va hajmini qisqartiradi. Xomtok qilish vaqtida novdalarning kesilgan joyi kuzgi kesishdagiga nisbatan tezroq bitadi.

Tokni umum qabul qilingan texnologiya bo'yicha kesish zarur. Bunda o'tkir tok qaychi va arradan foydalaniladi. Englar faqat ichki tomondan kesiladi, bunda kesilgan joylar yaqinidagi zararlangan maydonlarning tutashib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak, bu tupning o'sishini susaytiradi va hosildorligini kamaytiradi. Zanglarni kunda qoldirmay kesish, burchak ko'rta kdan novda xosil bo'lishini istisno etish lozim. O'rinbosar novda har doim mevali novdadan pastda va engning tashqi tomonida qoldiriladi. Engda bir necha mevali novda qoldirilganda kesish uzunligini ularning joylashganligiga ko'ra tabaqalashtirish kerak: mevali novda eng asosidan qancha uzoqda joylashgan bo'lsa, u shunchalik uzoqda qoldiriladi. Novdadagi kesik silliq bo'lishi va tez bitishi uchun tok qaychining bo'rtiq kesuvchi jag'i tupda qoladigan novda yoki eng qismiga qaratiladi.

Kuzda tok kesishni shakllantirish uchun keraksiz novdalar va o'sib ketgan englar olib tashlanadi, bir yillik novdalar ishlatilish maqsadiga ko'ra kattalashtiriladi.

Meva qiladigan tuplar tup boshidan kesiladi, bunda skelet novda bargdan tozalanadi. Tik o'suvchi novdalar asosga taqab kesiladi. O'sib ketgan va egilmaydigan bo'lib qolgan englar olib tashlanadi yoki yaxshi rivojlangan tupning tashqi tomoniga o'sgan novdachada quriy boshlagan englar olib tashlanadi. Ular o'rniga bachki novdalar qoldiriladi. Tupda pishgan novda to'rttadan kam bo'lsa, u xolda qator joylashgan kuchli novdalar yangi eng shakllantirish uchun qoldiriladi. Englarda asosga yaqin joylashgan ikki uchta kuchli novda tanlanadi, tupning ichki tomoniga qarab o'sgan eng pastki 2-3 ta ko'zcha, undan yuqogrisida 6-7 ta, eng yuqorisida 10-15 ta ko'zcha qoldirib kesiladi. Eng tez o'sib ketmasligi uchun o'rinbosar novdalar qoldiriladi. Ikkita xosilli novda kuchli hosilli bo'g'inni tashkil

qiladi.

Tok ko'miladigan rayonlarda kuzda dastlabki kesish vaqtida tuplarda qo'shimcha ko'rta klar (qabul qilingan normadan 20-25 % miqdorida) qoldiriladi. Baxorda tuplar ochilgandan keyin ko'rta klar qishda shikastlangan va singan novdalarni hisobga olgan holda qoldiriladi.

Tokdan xar yili mo'l va yuqori sifatli xosil olish uchun tuplardagi ko'rta klar soni tokning o'sish kuchi va meva qilish xususiyatlarini hisobga olgan holda navlar bo'yicha tabaqalashtiriladi.

Meva qilish ko'effitsienti past (rivojlangan novdalardagi uzum boshlari soni) bo'lgan kuchli o'sadigan navlar "Pushti toyfi", "Husayni", "Surxok Kitabskiy", shuningdek, "Qora kishmish" va "Oq kishmish"da ko'zchalar ko'proq qoldiriladi. Englarda kuchaytirilgan hosilli bo'g'inlar qoldiriladi, hosilli novdalar 10-15 ta qoldirib kesiladi. Bir tupda 200-300 ta ko'zcha qoldiriladi.

"Bayan-shirey", "Kuljinskiy", "Soyaki" navlari uchun oziqlanish maydoni 3x2,5 m bo'lgan tupda qoldirilgan ko'zchalar 160-200 tani tashkil etadi.

O'rtacha o'suvchi "Rkatsiteli", "Saperavi", "Pushti muskat", "Aleatiko" navlarida ko'zchalar soni 150-180 taga etkaziladi.

Hosil novdalari ko'p bo'lgan kuchsiz o'sadigan "Risling", "Pino chernyy" navlarida 80-100 ta ko'zcha qoldiriladi.

O'zbekiston sharoitida navning o'sish kuchi va muayyan novdaga ko'ra (kuchliroq novdalar uzunroq kesiladi) novdalarda 6-8, 9-12, 12-15 ta ko'rta k qoldirib, har xil uzunlikda kesiladi.

Respublikaning ko'pgina tumanlarida tuplarni ko'mishdan oldin va ularni ochgandan keyin bo'ladigan sovuqlar ko'zchalarning zararlanishiga, engning ko'p yillik qismlaridagi to'qimalarning qisman qurishiga olib keladi.

Yildan-yilga shikastlanishlar ko'payishi natijasida hosilli novdalardagi ko'p novdalar qurishi mumkin.

Kuchli zararlangan tokzorlarda qisqa vaqt ichida tupning er usti qismini qayta tiklash va bachkilardan xosil olish uchun tokni yaxshi parvarishlash zarur. SHuni xisobga olish kerakki, tup boshida va kalta kesilgan novdalarda yoki

kundaning pastki qismida rivojlanmagan va uyg'onmagan ko'rta klarning katta zaxirasi bor, ulardan mevasiz novdalar rivojlanishi va tuplarning er usti qismini qayta tiklash va hosil olish uchun foydalanish mumkin.

YAxshi suv-ozuqa rejimi qo'shimcha ko'rta klarning rivojlanishini kuchaytiradi. Zararlangan tokzorlarni birinchi navbatda sug'orish zarur. Sug'orishdan oldin mineral o'g'itlar solish kerak.

Sug'organdan keyin tup boshidan ko'plab bachkilar o'sib chiqadi, ulardan qulay joylashgan, tupning pastki qismida va qator bo'ylab o'suvchi 8-10 ta novda qoldiriladi, qolganlari olib tashlanadi. Bu ishni iloji boricha ertaroq, novdalar sinuvchanligida bajarish lozim.

Egiluvchan engli qilib to'g'ri shakllantirilgan va kesilgan tup oson va ixcham joylashadi, bu tokni sifatli ko'mishga imkon beradi.

Ko'p yillik malumotlarga ko'ra, O'zbekistonning shimoliy rayonlarida ko'pinchi noyabrning birinchi o'n kunligida harorat minus 10-12 gacha pasayadi, novdalari pishmagan tuplariga zarar etkazadi, bunda kumilmaydigan tokzorlarga ancha ziyon etishi mumkinligini hisobga olib, toklarni kesish, joylash va ko'mish ishlarini oktabrning ikkinchi yarmida tugallash kerak. YArim elpig'ichsimon shaklda o'stirishda ko'p yillik zanglar faqat bir tomonga pastki va ikkinchi simga, hosil beruvchi novdalar – birinchi va ikkinchi, istisno tariqasida, uchinchi simga bog'lanadi.

Muhim agrotexnik tadbirlardan biri – tokni xomtok qilish, novdalarni chilpish, bachki novdalarni olib tashlash, chekanka qilish va tok barglarini siyraklashtirishdir. Novdalarning o'sishi va etilishi, hosil sifati, o'simliklarni qishga tayyorlash mana shu agrotadbirlarning o'z vaqtida va to'g'ri o'tkazilishiga bog'liq.

Xomtok qilish. Tokning ko'k qismlarixomtok qilish (ortiqcha novdalarni yo'qotish), bachki novdalarni kesib tanlash, novdalarning o'suvchi ichki qismini chilpish va chekanka qilish bilan tartibga solinadi, o'sishi boshqariladi.

Xomtok qilish – tokning muttasil va yuqori xosil olishi uchun qilinadigan asosiy ishlardan xisoblanadi. Xomtok qilish gul g'unchalari paydo bo'lib, xosil

beradigan va bermaydigan novdalar bilina boshlagandan keyin o'tkaziladi. Xomtok qilishda xosil beruvchi va o'rinbosar novdalarning bir joydan ikkinchi novda o'sib chiqqan bo'sa, novda qoldirilib, xosilsizi olib tashlanadi.

SHo'ralar aniq shakllanganda birinchi xomtok o'tkaziladi. Busho'ra xomtok deb ataladi. Tokguldin to'liq chiqqandan keyin o'tkaziladigan xomtok g'o'ra xomtok deyiladi. Bu davrda g'o'ralarning kattaligi moshdek bo'ladi. SHo'ra xomtok davrida kundadan o'sib chiqqan novdalardan 3-4 tasi qoldirilib qolganlari olib tashlanadi. Tok tupining umumiy xolatiga qarab kundada 3-4 ta novdada qoldirilib, ular keyinchalik eski zanglarning o'rnini oladi.

G'o'ra xomtok davrida sho'ra xomtokdan qolib ketgan bekorchi va shu yilgi novda qo'ltig'idan o'sib chiqqan bachki novdalar qo'l bilan olib tashlanadi. Xar-bir xomtokdan keyin novdalar bag'izlarga nam chiptalar bilan 8 simon qilib bog'lanadi.

Xamma turdagi xomtok o'z vaqtida qilinsa, yozning birinchi yarmida tokda kechadigan murakkab biologik jarayonlar xam normal o'tadi. Kelgusi yilda mo'l xosil olish uchun puxta zamin yaratiladi.

Tokda sho'ralar paydo bo'lishi bilan xomtok qilinadi. Novdalarda to'pgul xosil bo'lishi bilan hosil novdalarini hosilsiz novdalardan farq qilish va ortiqchasini yulib tashlash mumkin. Novdalarning uzunligi 40-50 sm ga etganda ular simbag'azga bog'lanadi. Agar to'pgul o'rniga jingalak chiqsa, bu novda hosilsiz bo'ladi. Hosil qilmasligi aniq bo'lgan novdalarni erta xomtok qilish qo'shimcha miqdorda novdalar, shu jumladan hosil qiladigan novdalarning rivojlanishiga yordam beradi. Xomtokni erta gullaydigan navlar bo'lgan maydonlardan boshlash zarur. Tokning ko'p yillik zanglaridan o'sib chiqqan bachki novdalar birinchi navbatda olib tashlanadi. Bunda tokni shakllantirish va zangning o'rnini bosish uchun kerak bo'ladigan bachki novdalar qoldiriladi. Agar tokda zaraalanish natijasida yoki boshqa sabablarga ko'ra kam novda rivojlangan bo'lsa, ham bachki novdalarning bir qismi oziqlanish yuzasini oshirish uchun qoldiriladi.

Har bir nav uchun tupdagi hosil qilmaydigan novdalar nisbati olinadigan

hosil va novdaning o'sish kuchini, shuningdek, ekologik va agrotexnik sharoitini hisobga olgan holda belgilanadi. Masalan, sug'oriladigan erlarda etishtiriladigan kishmishbop navlarda har ikkita hosildor novdaga bir-ikkita hosilsiz novda qoldirish kerak. Lalmi tokzorlarda qish, bahor davridagi yog'ingarchilikni hisobga olgan holda xomtok qilinadi. Bir vaqtning o'zida olinadigan hosil miqdori normallashtiriladi va har bir hosildor novdaga bitta hosil qilmaydigan novda qoldiriladi. YOg'ingarchilik kam bo'lgan yillarda tokning juda kuchsizlanib ketishining oldini olish maqsadida sho'rali novdalarning uchdan bir qismini olib tashlash kerak. Texnik navlarning ko'pchiligida hosilsiz novdalar oz qoldiriladi, chunki ularda ko'p miqdorda sho'ralar yani yashil novdalar rivojlanadi.

Xomtok qilishni iloji boricha tezroq tugatish kerak. Agarda hosil beradigan va o'rinbosar novdalarning bir joyidan 2 yoki 3 ta ko'k novda o'sib chiqqan bo'lsa, bunda hosilli novda qoldirilib, hosilsizlari olib tashlanadi.

Birinchi xomtok sho'ralar aniq shakllangandan keyin o'tkaziladi. Buni sho'ra xomtok, tok to'liq guldan chiqqandan keyin qilinadigan xomtokni g'o'ra xomtok deyiladi. Bu davrda g'o'ralarning kattaligi taxminan moshdek, ayrim tok navlarida no'xatdek bo'lib qoladi. SHO'ra xomtok davrida kundadan o'sib chiqqan baquvvat novdalardan 3-4 tasi qoldirilib, qolganlarini cho'kirtak qoldirmay kesib tashlanadi. 3-4 ta qoldirilgan novdalar kelgusida qarigan zanglarni yoshartirishda foydalaniladi. Kundada novdalar qoldirishda tokning umumiy xolatiga qarash zarur.

G'o'ra xomtok qilishda sho'ra xomtokdan qolib ketgan ortiqcha va shu yilgi novdaning qo'ltig'idan o'sib chiqqan bachki novdalar tanasi qotib yog'ochlanmasdan qo'lda asta-sekin bir tomonga qiyshaytirib olib tashlanadi. Har bir xomtokdan keyin novdalar simbag'azlarga salgina tortib bog'lanadi.

SHuni alohida takidlash kerakki, ayniqsa, sho'ra xomtokdan keyin qoldirilgan ko'k novdalar juda mo'rt bo'ladi va yon tomoni sho'ra xomtokda ochilib qolgan bo'ladi. SHuning uchun xomtok qilingandan keyin ko'k novdalarni tezda bog'lash lozim, aks xolda salgina shamolga xam sinib ketadi.

Xomtok o'z vaqtida o'tkazilsa, yozning birinchi yarmida tokda kechadigan

murakkab biologik jarayonlar xam normal sharoitda o'tadi, shu bilan kelgusi yil mo'l xosil uchun puxta zamin tayyorlanadi.

Qo'ltiq novdalarni yulib tashlash – Qo'ltiq novdalar barglar qo'ltig'idan o'sib chiqadigan ikkinchi tartib novdalardir. Ko'pchilik madaniy navlarning tupida novdalar etarli miqdorli bo'lsa, bachki novda chiqmaydi, ular odatda, xosil beradigan novdalar kam bo'lganda o'sib chiqadi. Qo'ltiq novdalar tupning pastki va o'rta yarusidagi barglarni soyalab qo'yib, ularning rivojlanishiga ancha to'sqinlik qiladi, uzum boshlari kech pishadi. SHutsning uchun, qo'ltiq novdalar yulib tashlanadi. Tok tupida asosiy novdalar kam bo'lsa, yaxshi rivojlangan qo'ltiq novdalarning bir qismi qoldirilib, keyin ulardan xosil beradigan novdalar shakllantiriladi. Qo'ltiq novdalarning bir-ikkitasining uchini chilpib qoldiriladi. Bunda ular o'sishdan to'xtaydi va oziq moddalar asosiy moddaning uyqudagi ko'zchalariga oqib boradi, ular qo'ltimq novdaning pastki ko'rta kchalaridir. Bundan tashqari, uchi chilpib tashlangshan qo'ltiq novdalarning barglari asosiy novdadagi uzum boshlari g'ujumining yaxshi pishib, ko'p shakar to'plashini taminlaydi.

Tok novdalarining uchini chilpish. Tokning ayrim navlarining guli juda ko'p to'kilib ketib, natijada uzum boshlari siyrak va engil bo'lib pishadi. Ayniqsa iqlim sharoiti noqulay kelgan yillari ana shunday xolat ro'y beradi. Tok gullashi davrida novdalari kuchli o'sib, ko'p oziq moddalari o'zlashtiriladi. SHuning uchun xosil beruvchi novdalarning uchiga oziq moddalar to'liq etib bormaydi. Novdalarning o'sishi uchun oziq moddalarning sarflanishini kamaytirish maqsadida ularning uschi chilpib tashlanadi, yani uchki 1,5-2 sm qismi sindirib olib tashlanadi. SHunda novdalar bo'yiga o'sishdan to'xtaydi va ko'plab oziq moddalar to'p gullarga oqib keladi. Tok novdalarning uchi bevosita gullashi oldidan yoki gullay boshlaganda chilpiladi, natijada xosili 15-20 % ga oshadi.

Tok novdalarini chekanka qilish. Bunda tok novdalarining simbag'azning yuqori simidan osilib tushgan uchki qismi kesib tashlanadi. O'zbekistonda novdalar avgustning birinchi yarmida chekanka qilinadi.

Kuchli o'sgan tok novdalari iyul-avgust oylarida chekanka qilinadi. Bunda

etilmay qolgan hamda xaddan tashqari uzayib ketgan uchki qismi olib tashlanadi. Chekanka qilinganda shunga mo'ljallash kerakki, keyinchalik tok novdalarining uzunroq kesib, novdalarda etarli miqdorda ko'rta k qoldirish mumkin bo'lsin. Juda kuchli o'suvchi toklarning chekanka qilish bilan bir vaqtda ortiqcha novdalarni ham olib tashlash kerak. Shunda tok quyosh nuri va havodan yaxshi foydalanadi, uzum g'ujumlari yaxshi rang oladi. Bunda tokzorga ishlov berish, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashishi oson bo'ladi.

Tok tuplarining haddan tashqari o'sib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Chunki keyinchalik chekanka qilingandan so'ng barglar sathi qisqarib ketib, hosil miqdori pasayishi, uzum shirasida qand kamayishi va novdalar pishmay qolishi mumkin. Tok tuplarining o'sib rivojlanishini normallashtirishda uchun kuzda tok kesishda malum miqdorda novdalar qoldiriladi. Bahorda esa shu novdalarning ortiqcha, hosil bermaydiganlari olib tashlanadi.

Chekanka qilish natijasida tok tuplari yorug'lik va havodan yaxshi foydalanadi va yaxshi pishadi. Juda qalin o'sib keetgan tuplarni chekanka qilish kerakligi, ko'p yillik tajribalardan malum. Agar tok simbag'azga ko'tarib o'stirilayotgan bo'lsa novdalarni eng yuqorigi simdan 30 sm balanddan kesiladi. Tok barglarini siyraklashtirish. Bu ish uzum g'ujumlari pishgan vaqtda uzum shingillariga yorug'lik yaxshi tushishi va ular orasiga havo yaxshi kirishi hamda ular yaxshi rang olishi uchun amalga oshiriladi. Barglarni ko'p emas faqat uzum boshlaridan pastdagilarini yoki ularni soyalab qo'yganlarni yulib tashlash kerak. Barglari ko'p yulib tashlansa uzum boshlarini oftob urishi mumkin.

3.3. Uzumzorlarni organik va mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish.

Tokchilikda o'g'itlarni qo'llash samaradorligi ko'pgina omillar bilan belgilanadi, ular ichida tuproqning tabiiy unumdorligi, uning namlanganligi, umumiy tok o'stirish madaniyati va toklarning tuproqdan ozuqa moddalarini istemol qilish qobiliyati kabilar muxim o'rin egallaydi.

Hosil va tokning vegetativ massasi bilan tuproqdan ancha ozuqa moddalarining olib chiqilishi tuproqning tabiiy unumdorligini yaxshilash va uni

kerakli darajada saqlab turishni talab qiladi.

Qo'riq va qayta tiklangan erlarda yangi tokzorlar barpo etishdan oldin tuproq unumdorligini ko'p miqdorda organik o'g'itlar solish qo'shimcha ravishda tegishli miqdorda mineral o'g'itlar solib, 1, 2 yil davomida oraliq ekinlar etishtirish yo'li bilan yaxshilash talab etiladi.

YAxshi tekislangan, organik moddalar bilan boyitilgan, ko'p yillik begona o'tlardan tozalangan maydonlarda tok o'tkazishdan 2, 3 oy oldin er chuqur xaydaladi.

Tok o'stirish uchun sug'oriladigan almashlab ekilgan erlarni o'zlashtirishda chuqur xaydashdan oldin mineral o'g'itlarning asosiy miqdorini gektariga organik o'g'itlar gektariga 5 t dan 20 t gacha qo'shib solish mumkin.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida organik o'g'itlarning (ayniqsa go'ng) katta samaradorligini xisobga olib, tok chilik da bu o'g'itlardan tejab va maqsadga muvofiq foydalanish zarur. Buning uchun go'ng o'rnida tarkibida chirigan organik moddalar bor chiqindilar (uzum to'poni, o'simlik qoldiqlari) dan keng foydalanish kerak. Ularga fosfor, kaliy, mikroelementlar (kul, suyak, sanoat chiqindilari) dan iborat mineral moddalar qo'shiladi.

Bunday organik moddalarni solish normasi go'ng solish normasiga nisbatan 2-3 marotaba yuqori bo'lishi kerak.

Uzumdan mo'l hosil olinadigan tokzorlarda har 3-4 yilda gektariga 20-40 t miqdorida organik o'g'itlar solib turish zarur. Bunda o'g'it tok tuplari qishga ko'milgandan keyin erni 25-35 sm chuqurlikda haydab, go'ng sochgich bilan solinadi. Organik va mineral o'g'itlarni chuqur kovlagich bilan qaziladigan 60x60 sm li chuqurlarga solish juda samaralidir. Bunda har bir chuqurga 20-30 kg dan o'g'it solinadi.

Tok o'tkazilgan dastlabki ikki yilda ildiz sistemasi kuchsiz rivojlangan bo'lib, tuproqda uncha chuqur joylashmaydi va ekishdan oldin tuproqning unumdorligini yaxshilash suv-havo rejimi qulayligida o'simliklarning mineral o'g'itlar bilan etarlicha oziqlanishini taminlaydi.

SHu bilan birga tok qator oralarida poliz va sabzavot ekinlarini ular uchun

qabul qilingan o'g'itlash va sug'orish texnologiyasi bo'yicha etishtirishda xam tokzorlarda qulay suv-havo rejimi yaratiladi.

Sug'oriladigan bo'z tuproqlarda o'stiriladigan hosildorligi gektaridan 200-250 ts li tokzorlarda mineral o'g'itlarning asosiy meyorlari 120 kg azot, 90 kg fosfor va 30 kg kaliyni tashkil qiladi.

Hosildorligi yanada yuqori bo'lgan, shuningdek unumsiz tuproqlarda o'stiriladigan tokzorlarda fosfor va kaliy meyorini gektariga 90-120 kg gacha oshirish mumkin.

Tok novdalari yaxshi o'smaganda yoki tupda ko'p hosilli novda va sho'ralar rivojlanib, hosil mo'l bo'lgan yillarda, yoki fiziologik aktiv moddalar qo'llanilganda, toklarni birinchi marotaba may oyida, ikkinchi marotaba 10-15 kundan keyin gektariga 60 kg azot, 45 kg fosfor va 15 kg kaliy bilan qo'shimcha mineral oziqlantirish talab etiladi.

Sug'orilmaydigan erlardagi tokzorlarda tuproqda etarli nam to'planganda (kech kuz va bahorda) organik o'g'itlar aralashmasini solish kerak, bu o'g'itlarning o'simlik ildizlariga yaxshi etib borishini taminlaydi. Bunday sharoitda o'g'itlarni chuqurchalarga solish ayniqsa samaralidir. O'rtacha qumoq tuproqlarda gektariga 3 t go'ngni mineral o'g'itlar gektariga 60 kg dan azot, fosfor va 15 kg kaliy bilan 30-40 sm chuqurlikka solish zarur. Og'ir qumoq tuproqlarda 1 t go'ng bilan gektariga 120 kg azot, 90 kg fosfor va 30 kg kaliy bilan qo'shib 40-50 sm chuqurlikka solinadi.

Kompleks mineral o'g'itlar (ammofos, nitrofos va boshqalar) oddiy o'g'itlarga nisbatan bir qator agrokimyoviy iqtisodiy afzalliklarga ega.

Oziqa elementlari bo'yicha ularni solish miqdori oddiy o'g'itlar uchun tavsiya etilgan miqdor bilan bir xil. SHunga ko'ra oziqa elementlari tarkibini ko'paytirish uchun kompleks va oddiy o'g'itlardan birgalikda foydalanish kerak.

Masalan, sug'oriladigan hosildor tokzorlarda har yili bahorda toklar ochilgandan keyin gektariga 225 kg ammofos bilan birga 225 kg ammiakli selitra va 250 kg kaliy tuzlari yoki 455 kg nitrafos hisobidan mineral o'g'itlar solinadi.

Toklarga gullashdan ikki hafta oldin ventilatorli purkagichlar bilan ishlov

beriladi. TUR tasirida hosildorlik 40% ga oshadi.

Uzum boshining o'rtacha og'irligi yaxshi meva tugishi hisobiga 1,5-2 marotaba ortadi. Urug'siz navlarga TUR preparatining 1% li eritmasi bilan gullashidan 2 hafta oldin ishlov berish maqsadga muvofiqdir, keyin to'pgullarga giberellin eritmasi purkaladi.

Oziqlantirish talablari

Quyidagilarni bilish katta ahamiyatga ega:

- tokning o'g'itga bo'lgan talabi;
- har bir o'g'itning vazifasi;
- tokning o'g'itga bo'lgan talabining fiziologik davrlarga bog'liqligi;
- o'g'itlash vaqti;
- qancha miqdorda o'g'it berish kerakligi.

Eng muhim mikroelementlar:

- Azot (N);
- Fosfor (P);
- Kaliy (K);
- Kaltsiy (Ca);
- Magniy (Mg).

Boshqa makro va mikro elementlar:

- Temir (Fe);
- Bor (V);
- Marganets (Mn);
- Rux (Zn);
- Oltingugurt (S).

Makro va mikro elementlarning ahamiyati

Azot:

- o'sishga tasir qiladi;
- vegetativ azolarning tarkibi xisoblanadi;
- oksil manbai;
- 1 tonna xosil uchun 3,9 kg talab etiladi.

Fosfor:

- energiya tashuvchi;
- xujayra bo'linishi, yangi novdalar rivojlanishini taminlaydi;
- 1 tonna xosil uchun 3 kg talab etiladi.

Kaliy:

- eng kerakli moddalardan;
- tokning kaliyga bo'lgan talabi kuchli;
- moddalar almashinuvidagi rN (ishqoriylik) va kislotalilik darajasi meyorini taminlaydi;

- tez xarakatchan;
- uglevodlar sintezi va xarakati, novdalarning pishish jarayonida qatnashadi, tokni sovuqqa chidamliligini oshiradi;
- 1 tonna xosil uchun 1 kg talab etiladi.

Kaltsiy:

- tok qismlarida ahamiyati katta (novdalar, barglar, ildizlar);
- xujayra devorlarini tashkil qilish, xujayra devorlarining oziqalarni o'tkazish qobiliyatini yaxshilaydi;
- ozuqani o'tkazadi, shuning uchun oziqlantirishda ahamiyati katta;
- uzum po'stining mustahkamligini oshiradi (saqlash imkoniyati oshadi);
- 1 tonna xosil uchun 0,2 kg talab etiladi (uzumdagi ulushi past).

Magniy:

- fotosintez jarayonida, xlorofil donachalarida ahamiyati katta;
- fermentatsiya jarayonida;
- uglevodlarni xosil qilishda;
- 1 tonna xosil uchun 0,1 kg talab etiladi;
- uzumdagi ulushi past.

Temir:

- xlorofill sintezi;
- tokning nafas olishida;

rN (ishqoriylik darajasi) darajasi yuqori tuproqlardagi etishmovchiliklar.

Bor, Rux:

- xujayra bo'linishi;
- gul changining rivojlanishida muxim va katta ahamiyatga ega;
- bularning etishmasligi tok changlanishiga zarar ko'rsatadi.

1 tonna hosil olish uchun asosiy elementlarning tok tanasida taqsimlanishi, sarflanishi(foiz hisobida)

Element	O'simlik qismi					
	Meva	Ildiz	Zang	Barg	Novda	Jami
Azot	35.8	14	4.7	31.1	14.4	100(3.9)
Fosfor	34.2	11.4	2.7	39.8	11.9	100(3.0)
Kaliy	64.8	2.5	3.7	15.4	13.6	100(1.0)
Kaltsiy	8.4	1.2	5.7	69.8	14.9	100(0.2)
Magniy	14.9	7.6	4.9	53.9	18.7	100(0.6)

“Jami” ustunida qavs ichida joylashgan sonlar kg xisobida olingan

YUqoridagi jadvaldan quyidagilarni xulosa qilish mumkin: Meva orqali xar yili azotning 36%, fosforning 34% va kaliyning 65% ga yaqini tok tanasidan chiqib ketadi. Ushbu makro va mikro elementlarni tok tanasiga qaytarish uchun ularni o'z vaqtida tok talablariga qaytarish zarur.

Mineral o'g'itlarning etishmaslik belgilari:

- Xar bir element etishmovchiligi o'ziga xos belgiga ega;
- To'g'ri parvarish qilish uchun elementlar etishmovchiligi belgilarini bilish muximdir.

Azot:

- tuproqdagi erkin azot miqdorini aniqlashning ishonchli usuli hali kashf etilmagan;
- kamayib borish usuliga tayanib, 1 tonna uzum xosili olish uchun 3,9 kg azot ishlating;
- ildizlarning jadal rivojlanish davrida azotga talab ortadi;
- ko'rta k uyg'ongandan so'ng (o'sish davrida);
- meva tukkandan keyin (g'o'ralar rivojlanishida);

- terimdan so'ng (zaxira uchun).

Fosfor:

- judayam ko'p talab etiladi;
- xar yili terimdan so'ng tekshirib turish lozim;
- tuproqda xarakatlanmaydi;
- iloji boricha er ustiga ildizga yaqinroq berish kerak;
- mavsum boshida ildiz faoliyatiga katta yordam beradi;
- chingish uchun tuproq rN ishqoriyligi 4-6 bo'lishi yaxshi; sho'r tuproqlarda tok o'ziga etarli miqdorda fosforni tuproqdan ololmaydi.

Kaliy:

- tokning kaliyga bo'lgan talabi kuchsiz;
- kamayib borish usuliga tayanib har 1 tonna uzum hosiliga 1 kg kaliy beriladi;
- aytaylik hosildorlik gektariga 25 tonna.

Boshqa makro va mikro elementlar:

- Bor, Marganets, Temir va Rux juda kam miqdorda talab qilinadi va etishmovchilik belgilari ko'ringandagina barglar orqali qo'llash mumkin.

3.4 Tokzorlarni qayta tiklash, navlarining ishlatilishi va sovuqdan ximoya qilish.

Tokzorlarni qayta tiklash sanoat tokzorlarini kengaytirish maqsadida xosildor tokni ko'chirib o'tkazish, kompleks mexanizatsiya va ilg'or texnologiyani qo'llash imkoniyatini yaratish, tuplarga shakl berish va qator oralari kengligini o'zgartirish, kam xosilli navlarni istiqbolli navlar bilan almashtirish, suv taminotini yaxshilash uchun qatorlar yo'nalishini o'zgartirishni ko'zda tutadi.

Tokzorlarni qayta tiklashdan oldin erlarni o'lchab, syomka qilish, asosiy tekislash, agromeliorativ ishlarni o'tkazish, tuproqni chuqur haydash va unumdorligini tiklash, maydonni tashkil etish rejalarini tuzish kerak. Ko'chirib o'tqazish uchun zarur bo'ladigan rayonlashtirilgan nav ko'chatlariga bo'lgan ehtiyoj aniqlanadi.

Tokzorlarni qayta tiklash va nav tarkibini tartibga solishda respublikada uzumchilik strukturasini tubdan qayta qurish va navlari nisbatini xo'raki hamda mayizbop navlar foydasiga o'zgartirishni ko'zda tutish kerak.

SHu bilan birga respublikada yalpi uzum xosilini kamaytirmaslik uchun bu ishlarni reja asosida yilma yil amalga oshirish va yaxshi agrotexnik parvarishlash xisobiga eski tokzorlardan yuqori xosil olish lozim.

Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysi uzumning xo'raki navlarini, respublikaning janubi g'arbiy viloyatlarida (Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy va Jizzax viloyatlarining bir qismi) kishmishning mayizbop navlarini etishtirishga ixtisoslashgan.

Tokzorlarda uzumning quyidagi xo'raki va kishmishbop navlarini etishtirishmaqsadga muvofiqdir. O'ta ertapishar va ertapishar xo'raki navlar – “Surxoki Kitabskiy”, “Ertapishar”, “Ranniy SHredera”.

Erta ertapishar – “Qora kishmish”, “Kishmish Botir” va “Kishmish Sug'diyona”; o'rtapishar – “Xusayni”, “Qora janjal”, “Go'zal qora”, “Oq kishmish”, “Kishmish Xishrov”, “Zarafshon kishmishi”, “Kattaqo'rg'on”; o'rtakechpishar – “Muskat Aleksandriyskiy”, “Sultoni”; kechki navlar - “Nimrang”, “O'zbekiston muskati”, “Pushti toyfi”, “Oktabrskiy”.

Keyinchalik uzumning avgust oyida pishadigan yirik oq mevali kishmishbop navlari – “Kishmish botir”, “Kishmish Xishrov”, “Kishmish Zarafshon”, “Kishmish Sug'diyona” ekiladigan maydonlarni kenggaytirish zarur. Bu kishmishni qulay ob-havo sharoitida quritishni taminlaydi. Yirik qora mevali “Kishmish So'g'diyona” sentabr oyida pishadi va tashish hamda uzoq vaqt saqlashga yaraydi. YUqoridagi barcha navlar yangiligicha eyishga va quritishga yaraydi.

Uzumning xo'rak mayizbop “Oq Sultoni”, “Kattaqo'rg'on”, “O'zbekiston muskati” va “Muskat Aleksandriyskiy” navlaridan yuqori sifatli mayiz olinadi.

Tokzorlarda xo'raki navlar bilan birga 10-12% texnik navlar bo'lishi kerak, ular qayta ishlanib, yuqori sifatli sharbatlar, musallaslar va shampän vinolarni (“Kuljinskiy” navi, “Rkatsiteli”, “Soyaki”, “Bayan SHirey”, “Risling”, “Muskat

vengerskiy”) ishlab chiqariladi. Texnik navlarni parvarishlashga kam mablag’ talab etadi, bu mehnat resurslaridan unumliroq foydalanish imkonini beradi. Uzun boshlari yirik va o’rtacha, mevalari sersuv va etli ko’pgina texnik navlardan joyida xo’lligicha eyish va qisman respublika tashqarisiga chiqarish uchun foydalanish mumkin.

Bu navlardan xo’raki nav sifatida foydalanish uchun maxsus qo’shimcha tadbirlarni amalga oshirish, birinchi navbatda xo’raki navlar kabi xomtok qilish, hosili pishib etila boshlaganda esa uzun boshlariga quyosh nurlarining yaxshi tushishi uchun barglarini siyraklashtirish tavsiya etiladi. Bu ishlar shu navning xo’rakilik sifatlari (rangi, qand to’planishiga, mevalari mexanik xususiyatlari) ning yaxshilanishiga yordam beradi. Bu navlarning hosili texnik ishlov berish uchun terib olinadigan muddatda 10-12 kun kechroq va mevalarning sharbatida qand moddasi 17-20% dan kam bo’lmaganida uziladi.

Yangi tokzorlar uzumchilikdagi mavjud fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan holda barpo etiladi. Iqlim sharoiti tokning qishlashi uchun qulay bo’lgan Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarining bir qismi, Qo’qonning bir gurux tumanlarida tokni baland tanali qilib shakllantirib, keng qatorlarda o’stirish maqsadga muvofiq, bu xosildorlikning ancha oshishiga va mehnat xarajatlarining kamayishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, Surxondaryo viloyatida ertapishar uzun navlarini ko’p miqdorda o’stirish kerak, bu Toshkent shaxri axolisini 1 oy ilgari yangi uzun bilan taminlash va respublikadan chetga ham jo’natish imkonini beradi.

Uzunning xo’raki mayizbop “Nimrang”, “Kattaqo’rg’on” navlaridan tokzor barpo etishda shuni yodda tutish kerakki, bu navlarning guli urg’ochi tipli bo’lib, changlatuvchi navlar bilan birga (1-2 qator oralatib) o’stirishni talab etadi.

Nimrang navi uchun “Qora kishmish”, “Pushti toyfi” va “Muskat vengerskiy”, “Kattaqo’rg’on” navi uchun “Qora kishmish” va “Rkatsiteli” navlari changlatuvchi sifatida xizmat qilish mumkin. O’zbekiston maydonining katta qismida ayrim yillarda qishda havo xarorati minus 25-30 S gacha pasayadi, bu tokni qishda ko’mishni talab etadi.

Novdalarning yaxshi pishishi va chiqishini taminlaydigan yuqori agrofondada o'stiriladigan toklar yaxshiroq qishlaydi. Qishki zaxira suvi berish ham sovuqning zararli tasirini susaytiradi.

Xuddi shunga o'xshash xolni yoz oxirida azotli o'g'itlardan foydalanilganda ham kuzatish mumkin, chunki bu o'g'itlar novdalarning o'sish davrini cho'zib yuboradi va pishishini sekinlashtiradi.

Toklar dastlab kuzda kesilgandan keyin ko'mishdan oldin qator bo'ylab qo'ndiqlab yotqiziladi, MPV mashinalari bo'lsa, tok novdalari shu mashinalar yordamida yotqiziladi. O'zbekistonning shimoliy tumanlarida tok ustiga yotqizilgan tuproq uyumining balandligi 25-30 sm, boshqa tumanlarda esa 20-25 sm bo'lishi kerak.

O'zbekistonning shimoliy tumanlarida tok uchun xavfli kuzgi sovuqlar nobrning boshida tushadi, shuning uchun tokni ko'mish ishlari bu erlarda 1 noyabrda, qolgan tumanlarda 10 noyabrgacha tugatilishi kerak. Toklar yaxshi ko'milishi zarur. Yomon ko'milgan yoki kech ko'milgan tok kuzgi sovuqlardan, keyinchalik esa qishki sovuqlardan zararlanadi, novdalarini sovuq uradi va ular qurib qoladi.

3.5. Tokdoshlarning halq xo'jalikdagi ahamiyati.

O'rta Osiyoda shu jumladan O'zbekistonda xam uzum qadimiy tarixga ega. Eramizdan VI-VII asrlarda O'zbekistonning xozirgi xududlarida uzumchilik va vinochilik rivojlangan bo'lib, bu erda nafakat maxalliy navlar, balki chetdan keltirilgan navlar xam etishtirilgan. Uzum asosan sug'oriladigan erlarda etishtirilgan. Farg'ona, Samarqand, Zarafshon, Xorazm voxalari asosiy uzum etishtiradigan zonalar bo'lgan (Djavakyants, Gorbach, 2001).

SHu davrda asta sekin kishmish va mayizbop navlar xam etishtirila boshlandi. Uzunni quritish uzum saqlashning eng qulay va samarador usulidir. Asrlar davomida xalq tomonidan eng yaxshi kishmish va mayizbop navlar yaratildi. XVIII-XIX asrlarda xam jaxon bozorida mayiz va kishmishlar sotilib kelingan. O'zbekistonning tuproq-iqlim sharoitlari uzum etishtirish uchun qulay

bo'lib, bu erda xar xil uzum navlarini o'stirishimiz mumkin. Toshkent viloyati va Farg'ona vodiysida kishmish navlari asosan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarida ko'proq etishtirilgan (Djavakyants, Gorbach, 2001).

Toklarni shamol yaxshi yuradigan, oftob yaxshi tegadigan joylarda o'stirish, shpalerlarga ko'tarib qo'yish lozim. Ularni o'z vaqtida xomtok qilib, ortiqcha novda va barglarini qirqib turish, ayniqsa kuzda zamburug' qishlaydigan zararlangan (usti qo'ng'ir dog' bilan qoplangan) novdalar va baxorda birinchi paydo bo'lgan, zararlangan "bayroq novdalar" kesib olinishi va yo'qotilishi (masalan, ko'mib tashlash) juda muxim, agar bu choralar qo'llanilmasa, boshqa kurash usullarining samarasi juda pasayadi. Toklar orasidagi erni ag'darib, begona o'tlardan tozalab turish, zararli xasharotlar va boshqa kasalliklar bilan kurash choralarini qo'llash talab etiladi.

Tok qishloq xo'jaligi va sanoat uchun qimmatli, katta ahamiyatga ega o'simliklardan hisoblanadi. Tokzorlar butun dunyo bo'yicha 10,5 mln gektar erni ishlog' etadi. MDH da uzumzorlarning maydoni 500000 gektardan ortiqroq hisoblanadi. Uzumzorlar maydoni tobora kengaytirib borilmoqda. Dunyo bo'yicha uzumning 3000 navi malum. Sobiq Ittifoq davlatlarida esa uzumning 1200 navi hisobga olingan. Uzum navlarining g'oyat xilma-xil bo'lishi tok ekiladigan erlarni to'g'ri rayonlashtirishga va selektsiya ishlarini tubdan yaxshilashga imkon beradi. Uzumning eng yaxshi navlari O'rta Osiyo respublikalarida, Qrimda va Gruziyada o'stiriladi. Uzumning O'rta Osiyoda tarqalgan eng yaxshi navlari Nim rang, Toyfi, Husayni, Kattaqo'rg'on, CHaros, Pobeda, O'zbekiston muskati, Sultoni (Djaus), SHivirg'oni (Qora kishmish), Oq kishmish, Maska, Bixroriy, Gudung, Pendj, Qora bedona, Qora Uzum, Turkmeni, Ashxabadskiy, Terbash va boshqalar hisoblanadi. Uzum eyishlik va to'yimlik meva bo'lib, yangiligida hamda quritilib mayiz xolida istemol qilinadi. Undan sharbat olinadi, sirop, varene va konservalar tayyorlanadi. Uzum zo'r shifobaxsh xususiyatga ega. Uzum bilan kam qonli, oshqozon, buyrak va boshqa kasalliklar davolanadi. Vino uzumning asosiy mahsuloti hisoblanadi. Olingan vinodan "konyak" – "uzum arog'i" va spirtldar qilinadi. Vino zavodlarida uzumning sharbatini olgandan keyin qolgan turpidan sirka tayyorlanadi. Urug'ini

qovurib soxta kofe (surrogen) tayyorlaydilar, esa bo'ladigan yog' ham olinadi. Barg va yashil novdalaridan quritilgan qismiga nisbatan 1,8-2,4 protsent vino kislota olinadi.

Xozirgi paytda O'zbekistonda rayonlashtirilgan uzum navlari majmuasi bor. Viloyatlar buyicha uzumning 35 navi rayonlashtirilgan bo'lib, shulardan 17 tasi sharobbop navlar, 18 tasi xo'raki va kishmish navlardir. Bular jumlasiga kishmish navlari xam kiradi.

IV- BOB. Tokdoshlar oilasining zararkunandalari va kasalliklari oldini olish chora tadbirlari.

4.1. Uzumzorlarning turli xil zararkunanda xashoratlari bilan zararlanishi va kurash choralari.

Filloksera (tok biti) tok tupining eng xavfli karantinli zararkunandasidir. U 19-asrning oxiri va 20-asrning boshlarida Frantsiya, SHveytsariya, Portugaliya, Ispaniya, Gretsiya, Italiya, Bolgariya, YUgoslaviya, Vengriya, Ruminiya va Evropadagi boshqa davlatlarning uzumzorlariga katta zarar etkazgan. Faqat Frantsiyaning o'zida fillokseradan 2,5 mln gektar uzumzorlar nobud bo'lgan. Filloksera Evropa, Afrika va Osiyoda 4 mln gektar, butun dunyoda esa jami 9 mln gektar uzumzorning 6,5 mln gektarini yoki 70 foizdan ortig'ini ishdan chiqargan. Filloksera keltirayotgan zararlar juda katta.

Filloksera – tok shirasi (biti) bo'lib, so'ruvchi hasharotlar guruhiga kiradi va faqat tokda yashaydi. Fillokseraning zararliligi shundaki, u tok shirasini so'rgan joylarda, yani yo'g'on va patak ildizlarda shish, tugun va bo'rtmalar hosil qiladi. Evropada etishtirilgan tok navlarining filloksera shira tushgan joylarida chirish va to'qimalarda emirilish boshlanadi, so'ngra ildizlar quriydi. Filloksera bilan zararlangan tok tuplarining o'sishi va hosildorligi keskin kamayadi, bir necha yildan so'ng butunlay qurib qoladi. Amerikadan kelib chiqqan toklarning, duragay, shuningdek, bir qator izabell navlarning ildizlari fillokseraga bir qadar chidamliligi bilan ajralib turadi. Bu narsa shu bilan izohlanadiki, fillokseraga oziqlanishi natijasida hosil bo'lgan shish va yo'g'onlashgan joy ostida tezda po'kaksimon to'qima hosil bo'ladi va bu to'qima chirishning tarqalishiga to'sqinlik qiladi. Natijada ildiz sistemasi qurimaydi va tuplar nobud bo'lmaydi. SHu sababli ham Amerika tok navlaridan Evropa tok navlari uchun payvandtag sifatida foydalaniladi.

G'ovak, havo o'tkazuvchan, namlikni yaxshi singdiruvchi, shiferli, toshli va qora hamda soz tuproqli erlar filloksera uchun ayniqsa qulaydir. SHu sababli ana shunday erlarda joylashgan uzumzorlarni eng avval va nihoyatda sinchiklab tekshirish lozim.

TOK BARG O'ROVCHISI – kemiruvchi hashorot bo'lib, barg o'rovchi hashorotlar oilasiga mansub. Tok barg o'rovchisi Italiya, Frantsiya, SHveytsariya, Germaniya, Ruminiya, Bolgariya, Jazoir, YAponiya hamda SHimoliy Amerika, YAqin hamda Uzoq SHarq mamlakatlarida ham xavfli zararkunanda sifatida qayd qilingan.

O'zbekistonda tok barg o'rovchisi sug'oriladigan uzumzorlarga eng ko'p zarar etkazadi.

Bu zararkunandaning qurtlariuzum g'unchasi, gullari, g'o'ra va etilib kelayotgan mevasi bilan oziqlanadi. Zararkunanda yalpi hosil miqdori va mahsulot sifatini sezilarli darajada pasaytiradi. Zararkunanda keng tarqalib qolsa, bazan hosilning 50-60 % va undan ham ortig'ini nobud qiladi. Ayniqsa, etilib kelayotgan uzum bilan oziqlanuvchi uchinchi avlod qurtlari juda zararli bo'ladi. Bitta qurt o'zining rivojlanish davrida 5 tadan 23 tagacha g'ujumga zarar etkazadi. U salgina kemirgan uzum ham, uning yonidagilar ham chiriy boshlaydi. Tok barg o'rovchisi zararlagan va mog'or zamburug'i tegib chirigan uzum boshlari transportga ortish va saqlash, shuningdek, quritishga yaramaydi. Tok barg o'rovchisi bilan zararlangan uzum sharbatida juda ko'p cho'kma hosil bo'ladi. Zararlangan uzumdan zararlanmagan uzumga nisbatan ikki baravar kam sharbat olinadi. SHuningdek, tok barg o'rovchisi kemirgan uzumdan tayyorlangan vinolarning sifati yomon, loyqa bo'ladi va bu keyinchalik vinolarning buzilishiga olib keladi.

Tok barg o'rovchisi rivojlanish jarayonida to'rt bosqichni – kapalak-qurt-g'umbak-kapalak bosqichlarini o'taydi. Kapalagi mayda bo'lib, qanotining uzunligi 10-14 mm keladi. Sarg'ish-jigar tusda. Tuxumining uzunligi 0,6-0,7 mm, rangi och ko'k. Voyaga etgan qurtining uzunligi 10-13 mm ga boradi. Husayni singari oq rangli navlar bilan oziqlanganda, oqish-sarg'ish ko'k yoki tiniq ko'k, qora rangli navlar bilan oziqlanganda, to'q ko'k tusga kiradi. G'umbagining uzunligi 5,8-7,0 mm bo'lib, ko'kish-jigar rangda. O'zbekiston sharoitida tok barg o'rovchisi vegetatsion davrga qarab 3-4 ta avlod beradi. G'umbagi toklarning po'stlog'i ostiga oq pilla qo'yib, shunda to'kilgan hazonlar ostida, uzum boshlari ostida qishlaydi. Kapalaklari aprelning ikkinchi o'n kunligida uchib chiqib, tok

gulining g'unchalariga 1 tadan 5 tagacha tuxum qo'yadi. 5-6 kundan so'ng tuxumdan qurtchalar chiqadi. Birinchi avlodga mansub bitta qurti 40-60 ta g'unchani, gulni yoki rivojlanayotgan tugunchalarni emiradi. Qurtlar uzum gullarini o'rgimchak uyasiday to'r bilan o'rab, shu yo'l orqali boshqa g'unchalarga o'tadi. Ikkinchi avlod kapalaklari iyunning birinchi yarmida yoppasiga tuxum qo'yishga o'tadi. Kuzatishlarga ko'ra, bu davr uzum gullagandan 17-20 kun o'tgach boshlanadi. Tuxumdan chiqayotgan qurtlarning har biri 20 dan 40 tagacha tugunchalarni zararlaydi. Uchinchi avlodni beruvchi kapalaklar iyulning ikkinchi yarmida uchadigan bo'ladi va tuxum qo'ya boshlaydi. Bitta urg'ochi kapalak 120 tagacha kapalak qo'yadi.

Tok barg o'rovchisi keng tarqalgan hududlarda u uzumning barcha navlarini kemiraveradi. Bu zararkunanda zararlamaydigan uzum navi yo'q. Ammo, tok navlari agrobiologik xususiyatlari va uzumzorlarni parvarishlash darajasiga qarab, har xil zarar ko'radi. Tez o'suvchi va uzum boshi zich bo'lgan hamda po'stlog'i yupqa tok navlari ko'proq zararlanishi aniqlangan. SHuningdek, tok barg o'rovchisi qalin uzumzorlarga ham katta zarar etkazadi. CHunki bunday uzumzorlarda soya qalin bo'ladi va natijada barg o'rovchisiga quyosh nuri va yuqori harorat uncha tasir qilmaydi. Tabiatda bu zararkunandaning tabiiy kushandasi ham bor. O'zbekiston sharoitida tok barg o'rovchisining qiruvchisi entomofaglar hisoblanadi. Ayniqsa, ixnevmonidlar oilasiga mansub naezdniklar va texinidlar tok barg o'rovchisiga qiron keltiradi. Bu foydali hashorotlar 24 foizgacha tok barg o'rovchilarini yo'q qiladi.

Kurash choralari. Toklarni tok o'rovchisidan muhofaza qilishda tuplarni o'z vaqtida va sifatli parvarishlash katta ahamiyatga ega. Toklarni so'rilarga ko'tarib bog'lashda novdalarga yorug'lik va shamol tegib turishi hisobga olinishi kerak. Zararlangan toklar vegetatsiya davrida kamida ikki marta xomtok qilinishi va bunda ikkinchi xomtok (bunda uzum boshiga yaqin joylashgan barglar ham olib tashlanadi) odatdagi muddatdan 2-3 hafta o'tkaziladi. Tok qator oralari sug'orilgandan so'ng o'z vaqtida yumshatiladi.

Tok barg o'rovchisi zararlagan uzumzor ximiyaviy preparatlar bilan uch

marta dorilanadi. Dori Qora kishmish navlari 4-5 barg chiqarganda birinchi marta purkaladi.

Dorilash ikkinchi marta zararkunandaning ikkinchi avlodiga qarshi (tok gullagandan 17-20 kun o'tgach) o'tkaziladi. Ikkinchi avlodga qarshi takrori, yani uchinchi dorilash ikkinchi dorilashdan 7-10 kun keyin o'tkaziladi. Bu muddat Qizil chillaki navi yumshab, rang ola boshlagan davrga to'g'ri keladi. Bordi-yu uzumzorlar atrofiga tut daraxtlari ekilgan bo'lsa, birinchi dorilash o'tkazilmaydi. Bunday hollarda ikkinchi avlodga qarshi dorilash har 7-10 kunda amalga oshirilib, jami uch marta dorilanadi. Qo'llaniladigan preparatlarning turi ko'p. Ayniqsa, 0,2 % konsentratsiyali (100 litr suvga 200 gramm fozalon) zolon, antio, benzofosfat va fosfamid (rogor, BI-58) guruhidan bo'lgan fosfor-organik preparatlar qo'llanilganda, yaxshi natijalarga erishiladi.

Tok barg o'rovchisiga qarshi kurash oidium (kul) kasalligiga qarshi kurash bilan birga o'tkazilishi mumkin. Bunda yuqorida ko'rsatilib o'tilgan preparatlarga 0,6-0,8 foiz kolloid oltingugurt qo'shib purkaladi. Tok barg o'rovchisiga qarshi kurashda mikrobiologik preparatlar qo'shish bilan ximiyaviy preparatlar normasini kamaytirish mumkin. SHunday qilinadigan bo'lsa, entobakterin-3 ni qo'llagan maqul. Buning uchun fozalon yoki fosfamid konsentratsiyasi 0,05% entobakterin-3 qo'shiladi. Bunda ximiyaviy preparat gektariga 1 kilogrammdan, biopreparat esa gektariga 10 kilogrammdan sarflanadi.

UNG'UBORLI TOK QURTI tok, tsitrusli o'simliklar, anjir va anorning asosiy zarakunandalaridan biri hisoblanadi. U O'zbekistonda ko'proq Surxondaryo viloyati va Farg'ona vodiysi uzumzorlariga zarar etkazib kelmoqda.

Ung'uborli tok qurti tokning barcha organlariga zarar etkazadi. Undan qattiq zararlangan toklarning barglari sarg'ayib, to'kila boshlaydi, zarar etgan uzum boshlari, odatda qurub qoladi. Natijada hosil sezilarli darajada kamayib ketadi. Bundan tashqari, barglar va uzum boshlari qurt chiqindisi bilan zich qoplanadi. Bu chiqindilarda mog'or zamburug'i rivojlanadi. Natijada xo'raki uzumlarning sifati buziladi va ularni faqat vino uchun ishlatish mumkin bo'ladi.

Voyaga etgan urg'ochi ung'uborli tok qurtining uzunligi 4 mm bo'lib,

tuxumsimon shaklda bo'ladi. Tanasi sarg'ish-jigar rangda, usti oq unsimon g'ubor bilan qoplangan. Lichinkalari ham voyaga etgan qurtlariga o'xshash bo'lib, faqat kichikligi bilan farqlanadi.

Ung'uborli tok qurti bir mavsumda to'rt avlod beradi. Aprel oyida qishlab chiqqan urg'ochi qurtlar jinsiy voyaga etadi va 5-6 tadan 40 tagacha tuxum qo'yadi. Tuxumlardan ob-havo sharoitiga ob-havo sharoitiga qarab, novda va barglar bilan, ikkinchi avlodi va so'ngilari asosan baog va mevalar bilan oziqlanadi.

Keyingi avlodlarning nasldorlig ular tokningt qaysi organi bilan oziqlanishiga qarab ancha yuqori bo'ladi. Bitta urg'ochi kurt bandi va uzum donalariga 200-300 tagacha tuxum qo'yadi. Qurtlar partenogenetik ravishda (erkak qurtlardan otalanmay) ko'payadi. Qurt lichinkalari va qisman voyaga etgan urg'ochilari tok zangi yoriqlarida va ko'chgan po'stloq ostida ko'proq tokning pastki qismida va boshqa ko'zga ko'rinmas joylarda qishlaydi.

Kurash choralari. Agar uzumzorlarda tok barg o'rovchisiga qarshi kurash choralari ko'rilgan bo'lsa, u holda ung'uborli tok qurtiga qarshi maxsus ishlov o'tkazilmasa ham bo'ladi. Bunday kurash choralari o'tkazilgan va tok qurtlari ung'uborli qurtdan zararlangan bo'lsa, unga qarshi quyidagi choralar ko'riladi. Kuzda toklar kesilib, tuplar erga yotqizilgandan keyin ildiz oldi qismlari, voyaga va bir yillik novdalari 2 % li trixlormetafos-3 yoki 1-1,5% li metafos yoxud fozalonga 2-3% li N preparati aralashtirib purkaladi. Tok gullagandan so'ng na ir marta dorilanadi. Bunda 0,2% li konsentratsiyada fozalon, fosfamid, fntio, metafos, trixlormetafos va karbofos preparatlaridan birini qo'llash mumkin.

Qalamchalarning ung'uborli tok qurti bilan zararlangan tuplardan tayyorlashga yo'l qo'yilmaydi.

TOK MEVAXO'RI mavsumda ikki marta avlod beradi. O'zbekistonda u ko'proq Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Toshkent viloyatlarining ayrim uzumzorlarida uchraydi. Bu zararkunandaning ikkinchi avlodi ancha xavfli. U ikkinchi marta ko'p avlod beradi va tokchilikka katta zarar etkazadi. Ular tokning meva organlari bilan oziqlanib, hosilning 20-30%igacha qismini nobud qiladi.

Ayniqsa, kishmish navlariga ko'p zarar etkazadi. Ular tok barg o'rovchisidan sho'ra bandi va sho'raning emirilishi bilan farq qiladi. Ular kemirgan sho'ra va mevalar so'lib, qurib qoladi.

Tok mevaxo'ri rivojlanish davrida 4 bosqichni o'tadi. Kapalagining uzunligi 12-16 mm, och-kulrang tusda, kumushsimon jiloli va old qanotlarida ko'ndalang qoramtir dog'i bor. Bitta urg'ochi kapalagi o'rtacha 50-70 ta tuxum qo'yadi. Tuxumi uzunchoq shaklda, uzunligi 1 mm ga yaqin, oqish-shaffof rangli. YOsh qurti kulrang-qo'ng'ir rangda. Voyaga etgan qurti 14 mm gacha kelib, qizg'ish-yashilroq pushti rangda. Qurtlari tok barg o'rovchisiga nisbatan kam harakatchan, g'umbagining uzunligi 5-7 mm, jigarrangda. G'umbaklar davrida tok barg o'rovchisi qishlangan joylarda yashaydi.

Ularga qarshi ham tok barg o'rovchisiga qarshi kurash choralari qo'llaniladi. Agrotexnika uzumzorlardagi havoning nisbiy namligini qaratilgan bo'lishi kerak. Ortiqcha novdalarni olib tashlash, xomtok qilish kabi ishlar o'z vaqtida va sifatli qilib o'tkazilishi lozim.

Zararli tilla qo'ng'izlar qizg'ish-qo'ng'ir rangda, boshi qoramtir, tanasi sarg'ish-qo'ng'ir tangachalar bilan (go'yo un sepilgandek) qoplangan. Mo'ylovchalari erkak qo'ng'izlarida 7 va urg'ochilarida 5 bo'g'inli. Tanasining uzunligi 25-30 mm.

Qurtining tanasi oq, boshi jigarrangda. Voyaga etganda bo'yi 60-70 mm ga etadi. Qorin qismida 6-9 tadan 2 qator joylashgan mayda tikansimon tuklari bor. Qo'ng'izlari iyul oyida oqshom paytlari yoppasiga uchib yuradi. Kunduzi ular barglar ostiga, o'tlar olrasiga erni o'yib kirib, yashirinib oladi. Urg'ochilarni urug'langandan so'ng erning 2-3 sm chuqurligiga to'p-to'p qilib 50 tagacha tuxum qo'yadi. 20-25 kundan so'ng tuxumlardan qurtlar chiqadi va ular 3 yilga qadar tuproqda yashaydi. Dastlabki o'simliklarning yoshi ildizlari bilan, so'ngra ildizlarining yog'ochlashgan qismi va novdalari bilan oziqlana boshlaydi. Uchinchi yili may oyining oxiri va iyunning boshlarida qurtlar tuproqning 10-20 sm chuqurligida g'umbakka aylanadi. 15-20 kun mobaynida g'umbak qo'ng'iz bo'lib etishadi.

Mart tilla qo'ng'izining uzunligi 25 mm ga yaqin. Tanasi och-jigarrangda bo'lib, mayda oqish tangachalari bilan, boshi ko'k rang va yonboshlari kulrang tuk bilan qoplangan. Voyaga etgan qurtining uzunligi 5,5 sm ga etadi. Qorin qismining oxirgi bo'g'inida ikki qator (har birida 25-30 tadan) mayda tikanchalar bor.

Qo'ng'izlar mart oyining ikkinchi yarmidan aprel oyining oxirigacha yoppasiga uchadi. Aprel oyining o'rtalaridan may oyining boshlarigacha tuxum qo'yadi. Qurtchalari tuproqda 4 yil yashaydi.

Iyun tilla qo'ng'izi. Bu qo'ng'iz och-jigarrangli bo'lib, uzunligi 14-15 mm keladi. Qanoti to'q rangda bo'lib, ustida bo'rtma chizig'i bor. Boshi, ko'kragi, qalqoni va oyoqlari tuk bilan qoplangan, voyaga etgan qurtining uzunligi 40 mm ga yaqin. Qornining oxirigi bo'g'inida tikki qator mayda tikanchalari bor. May oyining o'rtasidan iyun oyining oxirigacha yoppasiga uchadi. Iyun oyida qo'riq, ko'pdan beri haydalmagan erlarga, shuningdek, eski bedazorlarga, tashlandiq bog' va uzumzorlarga urg'ochi qo'ng'izlar 30 tagacha tuxum qo'yadi. Avlodi qurt holida 2 yil yashab, may oyining boshida g'umbakka aylana boshlaydi.

Kurash choralari. Ko'chatzor yoki yangi uzumzor yaratish uchun mo'ljallangan uchastkalar tuprog'i ekishdan oldin tekshirilib, qo'ng'iz qurtlarining ko'p-ozligi aniqlanadi. Buning uchun kuzda haydalma qatlamdan namuna olinadi. Namunadan ikkita qurt chiqsa, uchastka geksoxloran dusti bilan dorilanadi.

YUqorida aytib o'tilgan asosiy zararkunandalardan tashqari, O'zbekiston uzumzorlarida kamroq bo'lsada zarar etkazuvchi boshqa hashorotlar ham uchraydi. Bular kanalar (o'rgimchak kana va qichima kana), komstok qurti, qovoq ari, brajniklar, xar xil tunlamlar va boshqalardir.


Bu hashorot va kanalarning ko'p turlari tokning asosiy zararkunanda va kasalliklariga qarshi ko'riladigan tadbirlardan nobud bo'ladi.

4.2. Tokning mikrooraginzmlar bilan kasallanishi va unga kurash choralari.


O'zbekistonda uzumzorlar oidium va antraknoz kasalligidan eng ko'p zararlanadi. TSerkosporioz, bakterial rak va boshqalar nisbatan kam zarar etkazadi

OIDIUM (unshudring). O'zbekiston sharoitida oidium tokning xavfli kasalligi hisoblanadi. Beparvo qaralgan uzumzorlarda bu kasallikdan hosilning 50% ga yaqini nobud bo'ladi. Oidium tokning hamma yashil qismlarida – gul, g'ujum, band, novda, ko'p tarqalganda barglarda ham rivojlanishi mumkin. Zararlangan barglar bujmayib qoladi, yosh novdalar kuchsizlanib, o'sishdan to'xtaydi. Zararlangan joylarda avval kulsimon g'ubor hosil bo'ladi, keyinchalik uning o'rnida qo'ng'ir dog'lar hosil bo'ladi. Kasallangan uzum donalari rivojlanmaydi, shaklini yo'qotadi va yorilib keta boshlaydi. Kasal tekkan novdalar rivojdan qoladi, yaxshi pishmaydi. Natijada kelgusi yil hosili keskin kamayib ketadi.

Bu kasallikni mikroskop ostidagina ko'rish mumkin bo'lgan zamburug' qo'zg'atadi. U tok tupining yashil qismiga joylashib oladi va o'simlikning hujayra shirasi hisobiga rivojlanadi. Zamburug' iplari (mitseliylari) da konidiy tashuvchilar, keyingilarda esa zamburug' sporolari hosil bo'ladi. Sporalar shamol yordamida tarqaladi. Ular tupning yashil qismlariga tushib, boshqa joylarni ham kasallantiradi.



Zamburug' vegetatsion davr mobaynida bir necha avlod beradi. O'ta nam havo kasallikning rivojlanishi uchun qulay sharoit hisoblanadi. Oidium o'sib, zichlashib ketgan uzumzorlarda tez ko'payadi. Oidium ayniqsa, Oq husayni, CHillaki, Kattaqo'rg'on, Qora kishmish, CHaros va Pushti toyfi navlarini ko'proq zararlaydi. Oidium mitseliy davrida novdalarning ko'zchalarida va alohida ip shaklida ko'rta k ichlarida, gul ko'rta gi atrofida qishlaydi. Bahorgi zamburug' erta rivojlanadi, lekin kasallikni ko'zga ko'rinadigan belgilari kech seziladi.



Kasallik tok gullashi arafasidan havo harorati ko'tarilib, namligi pasayguncha rivojlanadi. May va iyun oylarida yog'ingarchilikning ko'p bo'lishi va toklarni haddan tashqari ko'p sug'orish bu kasallikni avjlanishiga sabab bo'ladi. YOzning issiq kunlarida oidiumning rivojlanishi sekinlashadi.

Kurash choralari. Tok barg o'rovchisiga qarshi qo'llanadigan barcha agrotexnika tadbirlari bu kasallikka qarshi ham qo'llaniladi. Himoyaviy



preparatlardan ko'proq oltingugurt ishlatiladi. Uzunzor zararlanishi darajasiga qarab bahor, yoz oylarida to'rt martagacha changlanadi. Birinchi marta erta bahorda tok 4-6 barg chiqargandan so'ng, shundan 8-10 kun o'tgach ikkinchi marta, tok gullagandan keyin bir hafta o'tgach uchinchi marta changlanadi. Uchinchi changlashdan keyin tezda yog'ingarchilik bo'lsa, to'rtinchi marta changlanadi.

Bunda ikki hissa oltingugurt talqoniga bir hissa ohak kukuni yoki ko'cha tuprog'i aralashtiriladi. 1 gektar uzumzorga bir marta ishlov berish uchun novdalarning zichligiga qarab gektariga 25-35 kg aralashma sarflanadi. Oltingugurt talqoni bo'lmasa, 0,4-0,6 % li kolloid oltingugurt eritmasi purkaladi. Xuddi shunday konsentratsiyadan tiovidni ham qo'llash mumkish.

Oidiumga qarshi tadbirlar tok barg o'rovchisiga qarshi choralar bilan qo'shib o'tkaziladi. Bunda oltingugurt preparatiga uzum barg o'rovchisiga qarshi ishlatiladigan fosfororganik preparatlaridan biri qo'shiladi.

DOG'LI ANTRAKNOZ oidium singari tok kasalligi hisoblanadi. Kasallikni zamburug' keltirib chiqaradi va u tokning barcha yashil organlariga zarar etkazadi. Barglarda turli hajmdagi qo'ng'ir dog'lar hosil bo'ladi, barg shapalog'i egri bo'lib zararlangan joylari teshilib qoladi. Qattiq zararlangan barglar qurib, tushib ketadi. Tok gullari esa butunlay nobud bo'lishi mumkin. Antraknoz bilan zararlangan barglar qurib tushib ketadi. Tok gullari esa butunlay nobud bo'lishi mumkin. Antraknoz bilan zararlangan uzum tugunchalari qo'ng'ir tusga kiradi va to'kiladi. Zararlangan mevalarda dumaloq, biroz botiq binafshasimon-qo'ng'ir rangdagi dog'lar hosil bo'lib, dog'larning atrofi to'q jigar yoki qora rang bilan o'ralgan. Antraknoz bilan zararlangan mevalar bir yoniga o'sadi, ammo keyinchalik qurib qoladi. Novdalar zararlanganda mo'rt va engil shamolda ham sinadigan bo'lib qoladi. Bundan tashqari, ular yaxshi pishmaydi, natijada qishga chidamsiz bo'ladi. Qattiq zararlangan novdalar bazan qurib qoladi. Kasallangan tuplar, odatda, yaxshi rivojlanmaydi, ularning novdalari juda ingichka, barglari va mevalari yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Zaiflashib qolgan tuplar, zararlangandan 3-4 yil o'tgach, nobud bo'ladi.

Antraknozni qo'zg'ovchi zamburug'lar zararlangan novda to'qimalarida qishlaydi. Erta bahorda konidiyalar holida tarqaladi. Nam havo bu kasallikning rivojlanishi uchun qulay hisoblanadi. SHuning uchun ham keyingi yillarda bahorgi vegetatsiya davrida, ayniqsa may oyida yog'ingarchilikning ko'p bo'lishi uzumzorlarda bu kasallikning tez tarqalishiga olib keladi.



Antraknoz er osti suvlariga yaqin joylashgan uzumzorlarga ko'proq zarar etkazadi. Husayni, Qora va Oq kishmish, Kattaqo'rg'on, Echki emar, Oq va Pushti toyfi kabi mahalliy navlar ko'proq zararlanadi. Nimrang va Pushti Parkent navlari va boshqalar kamroq zararlanadi.

Kurash choralari. Antraknozga qarshi kurashning agrotexnikaviy tadbirlari odatda profilaktik harakterga ega. Antraknozga qarshi oidium va barg o'rovchilarga qarshi o'tkaziladigan tadbirlarning o'zi qo'llaniladi. Kesilgan novdalar yo'qotiladi.


Antraknoz bilan zararlangan tuplardan qalamcha olmaslik kerak.

Kasallangan uzumzorlarga ximiyaviy preparatlar purkaladi. Bunda birinchi marta kuzda, tok tuplarini ko'mishdan oldin 1,5 % li DNOK suyuqligi bilan ishlanadi.

Ikkinchi marta bahorda, novdalar 3-4 barg chiqarganda 1 foizli bordo suyuqligi (100 litr suvga 1 kilogrammdan mis kuporosi va ohak qo'shib) purkaladi.

10-12 kun o'tgach, bordo suyuqligi bilan qayta ishlov beriladi.

BAKTERIAL RAK. Bu kasallikni *Bacferum tumefacicus* bakteriyasi qo'zg'atadi. Tok raki O'zbekistonda ko'p uchraydi, halq orasida u buqoqsimon kasallik deb yuritiladi. Bu kasallikni keltirib chiqaruvchi bakteriyalar tuproqda yashaydi. Tok bu bakteriyalar bilan zararlanganda, zangida, ildizga yaqin qismida va ildizlarida diametri 15 santimetrgacha bo'lgan shishlar chiqadi. Dastlab shishlar yumshoq, ustki qismi silliq, oqish sariq yoki oqish pushti rangda bo'ladi. Kuzga yaqin bu shishlar qattiqlashadi, to'q rangga kiradi, ustki qismi g'adir-budir bo'ladi. Bakterial rak tokning rivojlanishini susaytiradi, uning ayrim zanglari va novdalarini, bazan esa tupning o'zini ham quritadi. Tok zanglari sovuqdan yorilganda yoki shikastlanganida bakteriyalar bilan zararlanadi. Bakteriyalar tokning to'qimalarida ko'payadi va hujayralarni parokanda qiladi.



Zanglar antraknoz bilan qattiq kasallangandan so'ng ham unda bakterial rak hosil bo'lishi mumkin. Antraknoz hosil qilgan yaralar atrofida uglevodli buqoqlar hosil bo'ladi, ular bakteriyalarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Bakterial rak, odatda, ushbu kasallik bilan zararlangan toklardan tayyorlangan ko'chatlar orqali tarqaladi.

Kurash choralari. Kasallangan tuplardan qalamchalar tayyorlashga yo'l qo'yilmaydi. Tok tuplarini shikastlanishdan, sovuq urushidan va kasalliklardan saqlash zarur. Kasallangan ko'chatlar, tuplar, ayrim novdalar olib, yoqib yuborilishi kerak.

Kuzda barg to'kilgandan so'ng bakterial rak bilan zararlangan o'simliklar 2 foizli DNOK bilan yaxshilab dorilanadi. DNOK preparati bo'lmagan taqdirda, 5 foizli mis kuporosi eritmasi yoki 5 foizli bordo suyuqligi bilan dorilash mumkin.

TSEKOSPORIOZ. Bu kasallik O'zbekistonning barcha uzumchilik hududlarida tarqalgan. Uning bahorda va kuzda rivojlangan formalari mavjud. Bahorgi tsekosporioz bilan zararlangan bargning pastki qismi ko'kish-sariq rang bilan qoplanadi, uning kuzgi formasi tekkanda esa to'q ko'kish sariq qoplam dumaloq dog'lar holida joylashgan bo'ladi.

Bargning bunday dog'lar bilan qoplangan to'qimalari halok bo'ladi, qattiq zararlangan barglar esa to'kilib ketadi. Bu kasallik bilan, shuningdek, novdalar, meva bandlari va mevalar ham zararlanadi. Mevasi ham barglari singari ko'kish-sariq rang bilan qoplanadi. Zararlangan meva bandlari quriydi va mevasi to'kilib ketadi. Novdalar esa yaxshi pishmaydi, qishga chidamsiz bo'ladi. Kasallik qo'zg'atuvchilar xazonlar ostida qishlaydi. O'zbekistonda bu kasallik bilan Oq Husayni, Kishmish, Buvaki, Oq va Pushti Toyfi, Kattaqo'rg'on kabi tok navlari ko'proq zararlanadi.

Kurash choralari. Uzumzor yaxshilab parvarishlanadi. Antraknozga qarshi qo'llanilgan dorilar purkaladi.

XLOROZ kasalligi tekkanda dastlab barg sarg'ayib, rangsizlanadi. Aksariyat hollarda novdalardagi barcha barglar sarg'ayadi va faqat bargning asosiy

tomiri yonidagi qismlarigina yashilligicha qoladi. Tokda mayda bargli bachki novdalar ko'payadi. Kasallangan tuplarda, odatda, mevalar ham tugiladi va ular mayda va sariq rangda bo'ladi. Xloroz bilan zararlangan novdalar yaxshi pishmaydi va qishki sovuqlarga chidamsiz bo'ladi. Ayrim hollarda tuplar nobud bo'ladi.

Xlorozni keltirib chiqaruvchi sabablar turlicha. Bu ko'pincha tuproqda ohak, tuz ko'pligi, temir moddasi etishmasligi, tuproqning sernam yoki juda quruqligi va hakovolar bilan bog'liq bo'ladi. Mana shu sabablarga barham berilsa, toklar o'zining asl rangiga qaytadi.

Kurash choralari. Tuproq strukturasi yaxshilanadi, uning namligi normallashtiriladi. Toklar mineral va organik o'g'itlar bilan etarlicha oziqlantiriladi. Davolash uchun toklar ostiga temir kuporosi yoki sulfat kislota eritmasi solish lozim. Buning uchun tup atrofida 70-80 santimetr radiusda chuqurligi 30-40 santimetr bo'lgan ariqcha qaziladi va unga har bir tupga 200-400 gramm hisobida kuporos kukuni solinadi. So'ngra ariqchaga suv qo'yilib, so'ng u tuproq bilan ko'miladi.

Sulfat kislota eritmasini qo'llash uchun tupdan malum masofada chuqurcha qaziladi. So'ngra chuqurchalarga har bir tupga 4-5 litr hisobida 1:20 nisbatdagi kislota va suv aralashmasi qo'yiladi va chuqurlar tuproq bilan ko'miladi.

XULOSALAR

1. Tokdoshlar oilasiga mansub o'simliklarning tarqalishi, navlari va ularning biologiyasi o'rganildi.
2. Ko'chat etishtirish usullari, uzumzorlarni barpo qilishni xalq xo'jaligidagi ahamiyati kengroq doirada o'rganildi.
3. Un - shudring yoki oidium kasalligini kuzgatuvchisi *Uncinula necator* zamburugi bulib *Erysipheles* tartibiga mansubdir. Kasallik asosan Markaziy Osiyoda keng tarkalgan bulib, tokning kurtak, barg, poya va mevalarini kasallantirib katta iktisodiy zarar etkazadi.
4. Samarali kurash choralari amalga oshirish uchun agrotexnik tadbiriy choralarni yuqori darajada o'tkazish, sifatli xomtok kilish, tarash, kator oraligini yumshatish, me'yorida sugorish, shamollatish ishlarini sifatli kilib utkazish kerak.
5. Kimyoviy choralar sifatida tok kasalliklariga qarshi Bordo suyukligining 1% li eritmasidan (mis kuporosi buyicha 10-15 kg/ga xisobida) o'suv davrida 6 martagacha purkash tavsiya etiladi, 10 % Vektra preparatining suspenszion kontsentratidan 0,3 l/ga 3 martagacha purkash yoki "Ruysat" ga kiritilgan preparatlardan birini qo'llash tavsiya etiladi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РУЙХАТИ

1. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози. Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йуллари ва чоралари. Тошкент: Ўзбекистон , 2009.-56 б
2. Абдуазимова Ж., Ерёменко О. Антракноз - опасная болезнь винограда. //С.-х. Узбекистана, 1995, №4, -С. 30-31
3. Абдуллаев Р.М., Мирзаев М.М., Набиев У.Я., Аброров Ш.М., Бекчанов У.А., Ғ.Ғ. Маҳмудов. Узум етиштириш ва майиз куриштиринг замонавий технологияси. // Тошкент, 2013.
4. Буриев Х., Жураев Р., Алимов О. Мева - сабзавотларни сақлаш ва уларга дастлабки ишлов бериш. -Тошкент: Мехнат, 2002. -184 б.
5. Венискайни Ж. Болезни и вредители винограда. М: 1948, С.48
6. Гапоненко Н.И., Ахмедова Ф.Г., Рамазанова С.С., Сагдуллаева М.Ш., Киргизбаева Х.М. Флора грибов Узбекистана. Том 1. Мучнисто-росяные грибы. -Ташкент: Фан, 1983, -362 с.
7. Дементьева М.А. Фитопатология. -М: Агропромиздат, 1985. -397 с.
8. Джавакянц Ю. Горбач В. Виноград Узбекистана. - Ташкент: Издательство Шарк, 2001,-84с.
9. Дудка И.А. и др. Методк экспериментальной микологии. Справочник. - Киев: Наукова думка, 1982. -551 с.
10. Жуковский П.М. Культурные растения. М.: Издательство «Колос», 1971, - 205 с.
11. Запрометов Н.Г. Диагностика и состав болезней с.х. растений Узбекистана и Средней Азии (1950-1973гг.). ТашСХИ. Стр. 139-143 в Сб.: Материалы юбилейной республиканской конф. По микробиологии, альгологии и микологии, посвященной 50-летию УзССР и КП Узбекистана. -Ташкент: Фан, 1974, 199 с.
12. Исоков О. Мильдю ёхуд сохта ун-шудринг касаллиги.//Ўзбекистон кишлок хўжалиги , 2004, №11, -Б. 25.
13. Исроилов Ғ.К Узум ва меваларни сақлаш. -Тошкент: УЗНИИНТИ, 1980, 2

б .

14. Кабиашвили М.В. Корневая гниль виноградной лозы в Грузии. «Материалы сессии Закавказского совета по координации научно-исследовательских работ по защите растений»,- Ереван: 1967, -С. 379-382

15. Камилов Ш.Г., Мостовой В.А. Болезни листьев винограда. Ботаника фанининг устивор масалалари. Илмий конференция маърузаларининг тезислари. - Тошкент, 1995, -С.47.

16. Мирзаев М.М., Сабиров М.К., Пащенко В.З., Куртов И.А., Кушназаров Х.К., Набиев У.Я. Токчиликка оид справочник. -Тошкент: “Ўзбекистон” 1976.

17. Мусина В.А. Управление эпифитной микрофлорой. М: ДАН СССР, 1963, С.52-58

18. Панфилова Т.С. Болезни виноградной лозы. Ташкент: 1953, 42
19. Панфилова Т.С. Борьба с пятнистым антракнозом винограда в Средней Азии. Виноделие и виноградарство СССР, 1950, № 7. С.184-186.
20. Пересыпкин В.Ф. Сельскохозяйственный фитопатология. -М.: Агропромиздат, 1989, - 480 с.
21. Принц Я.И. Вредители и болезни виноградной лозы. -М.: Изд. С.-х. Литературы, журналов и плакатов, 1962. -248 с.
22. Рахматов А. А. Основные болезни винограда в условиях Ташкентской области и разработка мер борьбы с ними. Дисс. на соискание уч. ст. к. с.-х. н. -Ташкент: 2008, -148 с.

23. Рахматов А., Маърупов А., Антракноз. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги , 2006 а, №7, -24 б.
24. Рахматов А., Маърупов А., Токнинг мильдю касаллиги.// Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги , 2006 б, №12, -22 б.
25. Рубан Н., Рябова Н. Пятнистый некроз винограда. //С.-х. Узбекистана, 1965, №11,-С. 40-42.
26. Сеидович М.И. Видовой состав микофлоры винограда. -Кишинев: 1935, - С. 42
Умаров У.С. Эпифитная микофлора виноградной лозы. -Ташкент: Агробиология, 1959. -С. 204
27. Усмонов У.Б. Новая болезнь винограда в Узбекистане «Виноделие и виноградарство» СССР, 1965, С. 204
28. Ўзбекистон републикаси қишлоқ хўжалиги да ишлатиш учун рухсат этилган пестицидлар ва агрохимикатлар руйхати. “Усимликлар химояси ва карантини” журнаliga илова, -Тошкент-2010.
29. Хамроев А.Ш., Азимов Ж.А., Ниёзов Т.Б., Соттибоев КС., Рашидов М.И., Расулзода П.Х., Зоҳидов М.М., Тожиев А.Х., Урунов А., Абдуллаев Р., Рейимов С., Пирмонов М., Эшчонов Х. Бог, токзорларнинг заракунандалари, касалликлари ва уларга қарши кураш тизими. Тошкент: “Фан”, 1995, 160 б.
30. Хасанов Б.О., Очилов Р.О., Холмуродов Э.А., Гулмуродов Р.А. Мевали ва ёнгоқ мевали дарахтлар, цитрус, резавор мевали буталар ҳамда ток касалликлари ва уларга қарши кураш. -Тошкент: ООО “Offise Print”, 2010. -316 б.
31. Хохряков М.К., Владимирская М.Э., Потлайчук В.И. Общей и частный проблемы микологии и фитопатологии./ Тр ВНИИ Защиты растений. Л. 1972, С. 33
32. Хужаев Ш., Мирзаева С. Узум химояга мухтож. //Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги , 2007, №6, 15 б.
33. Циганкова А.Т. Актуальный вопросы охраны природы производстве фруктов, винограда и овощей. Природа и технический прогресс. Кишинев:

1973. -С. 24-27

34. Шиблина В.И. Новые виды *Aspergillus* выделенные с яблок и винограда. //«Нов. систематика низших растений». -Л., Наука, 1972, Т9, С.171-180

35. Сайтлар:

<http://www.nasekomih.net/oidium.html>

http://www.vinogradik.net/yhod_za_plod/borba_s_boht

[tp://www.ages.at/servlet/sls/T](http://www.ages.at/servlet/sls/T)

[ornado/web/ages/content/](http://www.ornado/web/ages/content/)

<http://www.cababstractsplus.org/google/abstract.asp>